**Test** – baholanishi lozim bo‘lgan domen va konstrukt ha-qida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan topshiriq yoki topshiriqlar yig‘indisi. Shu o‘rinda aniqlik kiritish lozim: test – bu baholanishi lo-zim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikma yoki kompetensiya haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan har qanday topshiriq yoki topshiriqlar

majmuyi. Bu topshiriqlar turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- yopiq test – berilgan javob variantlaridan to‘g‘risini tanlashni talab qiladigan topshiriq;

- ochiq test – javob yozishni talab qiladigan topshiriq;

- amaliy test – bajarib ko‘rsatishni talab qiladigan topshiriq. Test shunday tuzilishi lozimki, uni bajarish aynan **bahola nishi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikma yoki kompe tensiyani ishga solishni talab qilsin.** Masalan, haydovchilik guvohnomasini berishdan oldin o‘quvchining transport vo sitasini boshqarish ko‘nikmasini qay darajada egallaganinibaholash uchun transport vositasini haydatib ko‘rish kerak, «men mashinani qanday boshqaraman?» mavzusida insho yozdirish yoki bayon qildirish orqali bu ko‘nikmani baho-lab bo‘lmaydi. Yoki o‘quvchining adabiyot fanidan qofiya varadifni farqlay olishini ko‘rmoqchi bo‘lsak, she’r berib, qofi ya va radifni topishni so‘rash mumkin. Obyektiv xulosalar chiqara olishimiz va test topshiruvchilarni bir-biri bilan solishtira olishimiz uchun test topshiriqlari va ularni bajarish talablari (sharoitlari) barcha o‘quvchilar (test topshiruvchilar) uchun **teng** bo‘lishi lozim. Masalan, transport vositasini boshqarish ko‘nikmasini baholayotganda bir o‘quvchi uchun hech qanday svetoforlari va chorrahalari yo‘qtekis trassa, boshqa o‘quvchi uchun harakat tirband bo‘lgan markaziy ko‘cha tanlansa, berilgan topshiriqni bajarish shartlari o‘rtasidagi bunday farqlar obyektiv xulosalar chiqarish imkonini bermaydi. Yoki ona tilidan insho yozish so‘ralgan testda bir o‘quvchiga berilgan vaqt boshqa o‘quvchiga berilgan vaqtidan farq qilsa, bu ham o‘quvchilarni bir-biri bilan solishtirish va obyektiv xulosalar chiqarishga xalal beradi.

**Testning shartlari:** baholanishi lozim bo‘lgan domen(bilim, malaka, ko‘nikma yoki kompetensiya) haqida xulosa chiqarishga imkon berishi va uni bajarish shart-sharoitlari barcha test topshuruvchilar uchun teng bo‘lishilozim.

Baholash jarayonida cheklangan sondagi maxsus tuzil-gan topshiriqlar (test topshiriqlari) yig‘indisi (test) orqali ma’lum bir domen, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar majmuyining (domenning) test topshiruvchida qay darajada shakllangani haqida bilvosita xulosa chiqariladi. Baholash jarayoni ma’lum bir **maqsadni** ko‘zlab o‘tkaziladi. Testdagi topshiriqlar soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa bir maqsad uchun to‘g‘ri kelmasligi mumkin, masalan, o‘quvchilarni chettolini bilish darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratish maqsadida tuzilgan ko‘p darajali (*multilevel*) testni chet tilini o‘rganishning konkret bir darajasini baholash uchun ishlatib bo‘lmaydi.

Yuqorida ko‘rganimizdek, test – baholash jarayonida qo‘l-laniladigan vosita. Bu vosita yordamida ma’lum bir domen va bu domenga xos bo‘lgan konstruktlar o‘lchanadi, ular o‘quvchida (test topshiruvchida) qay darajada shakllanganligi haqi-da xulosa chiqariladi. Bu xulosa esa, o‘z navbatida, **biron-birqaror qabul qilish uchun**

**asos bo‘lib xizmat qiladi.** Baholash jarayonining maqsadidan kelib chiqqan holda ikki xil baholashni ajratib ko‘rsatish mumkin: **xulosalovchi baholash va shakllantiruvchi baholash.**

**Xulosalovchi baholash (o‘rganishni baholash)** – ta’limjarayonining ma’lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki o‘quv yili oxiri, ta’limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishdan oldin) ta’lim oluvchining ta’limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o‘lchash jarayoni.

Xulosalovchi baholash natijasida chiqariladigan xulosalar asosida qabul qilinadigan qarorlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

**Baho berish (monitoring):** baholash natijasida chiqariladigan xulosalar o‘quvchi, o‘qituvchi, ta’lim yo‘nalishi, ta’lim muassasasi, ta’lim dasturi yoki butun boshli bir ta’lim tizimining faoliyatiga **baho berish** uchun ishlatilishi mumkin. Bunda ham olinadigan ma’lumot kim tomonidan ishlatilishiga qarab ikki xil baho berishni ajratib ko‘rsatish mumkin:

**Ta’lim oluvchiga (o‘quvchiga, talabaga) baho berish:** bunday baho berish, odatda, bevosita ta’lim berayotgano‘qituvchi yoki ta’lim muassasasi tomonidan amalgam oshiriladi va ta’lim oluvchining o‘quv dasturi yoki uning ma’lum bir qismini qay darajada o‘zlashtirgani haqida ma’lumot beradi. Bu ma’lumot ta’lim jarayonining turli ishtiroychilari tomonidan turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

ta’lim oluvchi tomonidan: fanni yoki modulni qaytao‘zlashtirish lozimligi haqida qaror qabul qilish maqsadida; bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tganda o‘zlashtirilgan fanlar (modullar) to‘g‘risida ma’lumot taqdim qilish maqsadida va hokazo;

- ota-onalar tomonidan: farzandining o‘zlashtirishini kuzatib borish maqsadida; farzandiga qaysi fandan qo‘sishma yordam kerakligini aniqlash maqsadida va hokazo;

- ta’lim muassasasi tomonidan: ta’lim oluvchini ta’limning keyingi bosqichiga o‘tkazish yoki o‘tkazmaslik haqida qaror qabul qilish maqsadida; ta’lim oluvchiga ta’lim muassasasini bitirganligi to‘g‘risida hujjat berish yoki bermaslik haqida qaror qabul qilish maqsadida va hokazo;

**Ta’lim beruvchi (o‘qituvchi, ta’lim muassasasi), ta’lim yo‘nalishi (dasturi) yoki ta’lim tizimiga baho berish:** bunday baho berish ichki (ta’lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan) yoki tashqi (ta’lim sifatini nazorat qiluvchi davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan) bo‘lishi mumkin. Bunday baholash jarayoniga barcha ta’lim oluvchilar qamrab olinmasdan, ta’lim oluvchilarning ma’lum bir qismini baholash orqali o‘qituvchi, ta’lim muassasasi, ta’lim yo‘nalishi yoki butun boshli bir ta’lim tizimi qay darajada samarali ishlayotgani haqida xulosalar chiqarilishi mumkin. Bu xulosalar esa, o‘z navbatida, qandaydir xatti-harakatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: ta’lim beruvchilar (o‘qituvchilar, ta’lim muassasasi, ta’lim muassasasi rahbariyati) faoliyati haqida xulosalar chiqarish;

- ta'lim dasturlariga o'zgartirishlar kiritish;
- ta'lim muassasasi faoliyatiga o'zgartirish kiritish yokiuni yopish;
- ta'lim tizimini isloh qilish va hokazo.

**Tanlash:** baholash natijasida chiqariladigan xulosalar test topshiruvchilarni **tanlash (saralash)** uchun ishlatiladi. Bu tanlash asosan ikki xil bo'lishi mumkin:

**Belgilangan talabga javob beradiganlarni tanlash:** bunda minimal talablar o'rnatiladi va baholashning maqsadi shu talablarga mos keladiganlarni ajratib olish bo'ladi. Belgilangan minimal talablarga javob beradiganlarning barchasiga qandaydir hujjat (masalan, ta'limni muvaffaqiyatli tugatganligini tasdiqlovchi hujjat – diplom, guvohnoma, biron-birfaoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat beradigan hujjat – sertifikat, litsenziya) yoki huquq (masalan, ta'limning keyingi bosqichiga o'tish huquqi) beriladi. Aksar xorij davlatlaridagi (AQSh, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo) oliy ta'lim muassasalari, odatda, bo'lajak talabalarga qo'yiladigan minimal talablarni e'lon qilishadi va shu talablarga javob beradigan barcha abituriyentlarni o'qishga qabul qilishadi;

**Cheklangan kvota sharoitida tanlash:** bunday holat bir o'ringa bir necha talabgor da'vo qilayotganda yuzaga keladi (masalan, oliy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilish, xorija malaka oshirishga yuborish uchun tanlash, bo'sh ish o'rniga nomzod tanlash va hokazo). Bunda test topshiruvchilarni bir-biriga solishtirish asosida qaror qabul qilinadi, ya'ni test topshiruvchilarning ichidan eng yuqori natija ko'rsatganlari tanlab olinadi.

**Shakllantiruvchi baholash (o'rganish uchun baho lash)** – ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarining o'zlashtirish sifatini baholab borish.

Shakllantiruvchi baholash natijasida olinadigan xulosalar ta'lim jarayonini ta'minlash (ta'lim oluvchiga va o'qituvchiga ta'lim jarayoni qay darajada samarali kechayotgani haqidama'lumot berish, keyingi qadamlarini belgilash) uchun ishlatiladi. Masalan:

- Muntazam ravishda sinfda o'quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtirgani yoki o'zlashtirmagani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma'lumot beriladi;

biron-bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilari shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganlari haqida ma'lumot olishi va lozim bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash (diagnostika) maqsadida test o'tkazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyingi qadamlarini rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruuhlarga ajratishi mumkin.

Demak, shakllantiruvchi baholash ta'lim beruvchilarga (o'qituvchilarga) va ta'lim oluvchilarga (o'quvchilarga, talabalarga) asosan **jarayonni** baholash va lozim bo'lgan o'rnlarda unga o'zgartirish kiritish imkonini bersa, xulosalovchi baholash

**natijani** baholash uchun ishlataladi.

Shakllantiruvchi baholash samarali bo‘lishi uchun xulosa- lovchi baholashdan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi lozim:

xulosalovchi baholash asosan rasmiy shaklda (imtihon, sinov, kurs ishi topshirish va hokazo) o‘tkazilsa, shakllanti- ruvchi baholash bevosita o‘qituvchi tomonidan asosan **norasmiy shakllarda** (kuzatish, og‘zaki savol-javob, kichik hajm-dagi testlar, yozma ishlar va hokazo) o‘tkaziladi;

xulosalovchi baholashdan keyin, odatda, aynan shu ta’limoluvchilar guruhi uchun ta’lim jarayoniga o‘zgartirish kiritish imkonи mavjud bo‘lmaydi (lekin xulosalovchi baholashdan olingan ma’lumotlar natijasida keyingi ta’lim oluvchilar gu- ruhi uchun bunday o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin), shakllantiruvchi baholash jarayonida olingan ma’lumotlar natijasida o‘qituvchi ta’lim jarayoniga **kerakli o‘zgartirish lar krita oladi** (masalan, o‘quvchilar bo‘sh o‘zlashtirgan mavzuni qayta o‘tishi mumkin);

xulosalovchi baholashdan keyin, odatda, qayta aloqa, fidbek (inglizcha «feedback»), ya’ni tahlil bo‘lmaydi – test topshiruvchilarning natijalari e’lon qilinadi, lekin nega shun-day natijalar chiqqaniga izoh berilmaydi yoki izoh berilsa ham, test topshiruvchi bu izohni keyingi qadamlarni rejalash- tirish uchun ishlata olmaydi, shakllantiruvchi baholashda esa o‘qituvchi ta’lim oluvchiga **izoh (tushuntirish) berishi lozim** – shunda ta’lim oluvchi o‘z yutuq va kamchiliklarini anglab, keyingi qadamlarini rejashtira oladi.

Test tuzayotganda, uni ishlatayotganda va uning natijalarini talqin qilib, bu natijalar asosida biror-bir qarorga kelinayotganda, birinchi navbatda, baholashning maqsadini aniqlashtirib olish lozim. Umuman, har qanday testni ishlatishda quyidagi uch savolga javob berish lozim:

- 1.Baholashning asosiy **maqsadi** nimadan iborat?
- 2.Baholashning **shakli** maqsadga mosmi?
- 3.Baholashdan ko‘zlangan maqsadga **erishildimi?**

**Xulosalovchi baholash** asosan ta’lim oluvchiga yokita’lim oluvchi orqali ta’lim beruvchiga (o‘qituvchi, ta’lim muassasasi, ta’lim yo‘nalishi, ta’lim tizimi) baho berish (faoliyatini monitoring qilish) hamda ta’lim oluvchilarni saralash maqsadida rasmiy shaklda (imtihon, sinov, kurs ishi yoki diplom ishi topshirish va hokazo) o‘tkaziladi.

**Shakllantiruvchi baholash** asosan ta’lim jarayoni davomida bevosita o‘qituvchi tomonidan turli shakllarda o‘tkaziladi, bunday baholash natijasida olingan ma’lumot o‘qituvchi va ta’lim oluvchiga keyingi qadamlarini rejashtirish uchun yordam beradi.

Xulosa qilinganda, Ona tili va adabiyot fanlarida pedagogik baholash mezonlarini ishlab chiqish va to‘g‘ri qo‘llash o‘quvchilarning bilim darajasini aniq aniqlash va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda yoritilgan adabiyotlar o‘qituvchilarga amaliy yordam beradi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdukarimov, X. (2021). "Pedagogik baholash tizimi va uning o'quvchilarga ta'siri." Tashkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
2. Dovudova, S. (2020). "O'quvchilarni baholash metodlari: nazariy va amaliy yondashuvlar." Pedagogika va ta'limga innovatsiyalar jurnali, 2(3), 45-53.
3. Bergson, H. (2019). O'qitishda didaktik baholash: tamoyillar va yondashuvlar. Toshkent: Ta'limga nashriyoti.
4. Khamidov, B. (2022). "Baholashning yangi texnologiyalari va ona tili o'qitishdagi ro'li." Innovatsion ta'limga texnologiyalari jurnali, 6(4), 123-130.
5. Maksimov, O. (2020). "Pedagogik baholashda elektron vositalar va metodik yondashuvlar." Ta'limga texnologiyalari jurnali, 3(2), 78-85.
6. Nazarov, M. (2018). Ta'limga baholash tizimini modernizatsiya qilish. Tashkent: Fan va ta'limga nashriyoti.
7. O'rino boyeva, F. (2019). "Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy baholash usullari." O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, 45-49.
8. Saidov, U. (2020). Didaktik baholashning innovatsion usullari va ularni o'qitishda qo'llash. Toshkent: Ta'limga va pedagogika nashriyoti.
9. Toshpo'latov, A. (2021). "Pedagogik baholash tizimida reflektiv yondashuv." Pedagogik o'zgarishlar jurnali, 8(1), 100-106.
10. Yusufov, B. (2017). "Ta'limga baholashning ijtimoiy va madaniy aspektlari." O'qituvchining pedagogik faoliyati jurnali, 5(3), 33-41.

## KELISHIK QO'SHIMCHALARINING SEMANTIK MUNOSABATLARI

*Sayfiddinova Dildora Shovkiddin qizi  
Samarqand davlat chet tillar instituti  
Koreys filologiyasi kafedrasи 2-bosqich magistranti  
[Sayfiddinnovadildora@gmail.com](mailto:Sayfiddinnovadildora@gmail.com)*

### ANNOTATSIYA

O'zbek tilidagi kabi koreys tilida ham kelishik kategoriyasi mayjuddir. Otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va shu ma'noni ifodalovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deb yuritiladi. Otning kelishik qo'shimchasini olib o'zgarishi turlanish deyiladi. Kelishik affikslari esa turlovchi affikslardir. Kelishik kategoriyasi o'zi birikkan asosni nutqqa o'tkazuvchi, uni nutqiy jarayonga xoslovchi til birligi hisoblanadi. Kelishik kategoriyasi, asosan, ot so'z turkumiga xosdir. Ushbu maqolada kelishik kategoriyalarining semantik munosabatga kirishishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** semantik munosabat, transpozitsiya, bosh kelishik (주격조사), tushum kelishigi (목적격조사), predikativ kelishigi (서술격조사), qaratqich kelishigi (관형격조사), to'ldiruvchi kelishigi (보격조사), atash kelishigi (호격조사), jo'nalish kelishigi (여격조사), chiqish kelishigi (처격조사), vosita kelishigi (조격조사)

Koreys tilida ham kelishik qo'shimchalari xuddi o'zbek tilidagi kabi belgili va belgisiz qo'llanila olish xususiyatiga ega. Belgili qo'llanilish koreys tilidagi barcha kelishik qo'shimchalariga xos hodisadir. Lekin ularning ayrimlari gapda belgisiz qo'llanilishi ham mumkin. Ba'zi hollarda kelishik qo'shimchalarini gapda tushirib qoldirishimiz ham mumkin. Koreys tilida o'zbek tilidan farqli o'laroq yettita, holat kelishigi tarkibiga kiruvechi uchta kelishikni qo'shib hisoblaganda to'qqizta kelishik mavjud. Koreys tilida bosh kelishik, tushum kelishigi, qaratqich kelishigi, predikativ kelishigi, to'ldiruvchi kelishigi, atash kelishigi, jo'nalish kelishigi, chiqish kelishigi, vosita kelishigi kabi kelishiklar mavjud.<sup>1</sup> Yuqorida ko'rib o'tganimizdek koreys tilida o'zbek tilida mavjud bo'lмаган atash kelishigi, otga qo'shilib uni ot - kesimga aylantiruvchi predikativ (kesim) kelishigi hamda ot - kesimga qo'shiluvchi to'ldiruvchi kelishiklari mavjud. Bundan tashqari koreys tilida kelishik qo'shimchalarining hurmat shaklini ifodalovchi variantlari ham mavjud. Biroq bunday xususiyat barcha kelishik qo'shimchalariga ham xos emas.

<sup>1</sup> Sh.K.Eshimova Koreys tili kelishiklar tizimi. Samarqand 2019 5-b

**Kelishik qo'shimchalari jadvali**

<b>Qo'shimchalar turlari</b> (분류)		<b>Shakllari</b> (현태)
<b>Kelishik qo'shimcha- lari</b> (격조사)	Bosh kelishik (주격조사)	-이/가,께서
	Tushum kelishigi (목적격조사)	-을/를
	Predikativ kelishigi (서술격조사)	-이다
	Qaratqich kelishigi (관형격조사)	-의
	To'ldiruvchi kelishigi (보격조사)	-이/가
	Atash kelishigi (호격조사)	-아/야, (이) 여
	Ravish holat kelishigi (부사격 조사)	Jo'nalish kelishigi (여격조사)
	Chiqish kelishigi (처격조사)	-에 / -에게 / -한테/ -께 -에서 / -에게서 / -한테서
	Vosita kelishigi (조격조사)	으로

**Bosh kelishik qo'shimchasi** (주격조사) Otga qo'shilib, egani ifodalash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar bosh kelishik qo'shimchalari deb yuritiladi. O'zbek tilida bosh kelishik boshqa kelishiklarga zid holda maxsus ko'rsatkichga ega emas, koreys tilida esa bosh kelishik o'zbek tilidan farqli o'laroq o'z qo'shimchasiga ega. Koreys tilida bosh kelishik so'zga -이/가 qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi.<sup>2</sup> Agar bosh kelishik qo'shimchasi qabul qilayotgan so'z unli harf bilan tugagan bo'lsa, -가 qo'shimchasi qo'shiladi. Agar undosh harf bilan tugagan bo'lsa -이 qo'shimchasi qo'shiladi.

이 가방이 무겁습니다.

Bu sumka og'ir.

Koreys tili va o'zbek tili grammatikasini taqqoslab qaraganda bir qancha tafovutlarni ko'rishimiz mumkin. Koreys tilida ayrim kelishik qoshimchalarining hurmatni ifodalaydigan shakllarini ham mavjud. Ega bilan ifodalangan obektga bo'lgan hurmatni ifodalash uchun bosh kelishik shakllari bo'lgan -이/가 emas, bosh kelishikning yana bir shakli께서 so'z o'zagiga qo'shiladi. Bunda hurmat

<sup>2</sup> Eshimova. Sh. K Samarqand- Koreys tili kelishiklar tizimi 2019.12-b

ma’no egaga nisbatan qaratilgan bo‘ladi. Agar gapda ega 께서 qo’shimchasi bilan yasalgan bo‘lsa, fe’lning o‘zagiga hurmat shaklini yasovchi (으)시|qo’shimchasi qo‘shiladi.

예: 부모님께서 고향에 계십니다.

Ota onam qishloqdalar.

선생님께서 지금 편지를 쓰십니다.

O‘qituvchimiz hozir xat yozyaptilar.

Ba’zi gaplarda bosh kelishik qo’shimchasi bilan yasalgan ega gapda ikki martadan ortiqroq qo’llanishi mumkin. Bunday holda koreyscha jumlalarda bosh kelishik qo’shimchasini olgan birinchi ot ega vazifasini bajaradi, ikkinchi ot esa kesim tarkibining qismi hisoblanadi, ya’ni gapda ot-kesim bo’lib keladi. Bunday jumlalarni o’zbek tiliga tarjima qilganimizda, boshqacha holat kuzatiladi. Bosh kelishik qo’shimchasini olgan birinchi ot aniqlovchi vazifasini bajaradi, ikkinchi ot esa ega tarzida tarjima qilinadi.

예: 아파트가 난방이 잘 된다.

Xonaning isitish tarmog‘i yaxshi ishlaydi.

**Tushum kelishigi qo’shimchasi** (목적격조사) otga qo’shilib, vositasiz to‘ldiruvchini ifodalash uchun ishlatiladi. 을/를 tushum kelishigining Grammatik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Tushum kelishigida kelgan so‘z fe’l anglatgan ish-harakatni bevosita o‘ziga qabul qilgan narsani ifodalaydi. Agar otning o‘zagi unli harf bilan tugagan bo‘lsa, -를 qo’shimchasi ishlatiladi, agar otning o‘zagi undosh harf bilan tugagan bo‘lsa, u holda otdan so‘ng -을 shakli qo’llaniladi.<sup>3</sup>

예: 어제 오후에는 집에서 남편 생일 음식을 만들었습니다.

Kecha tushdan keyin uyda erimning tug‘ilgan kuniga ovqat tayyorladim.

Kelishik qo’shimchalarining qisqargan shaklining mavjudligi faqatgina o’zbek tiliga xos bo‘lib qolmay, bunday shakllarni koreys tilida ham kuzatishimiz mumkin. Koreys tilida ham ba’zi bir kelishik qo’shimchalarining qisqargan shakli mavjud. Koreys tilida ba’zan tushum kelishigi qo’shimchasi o‘rniga uning qisqargan shakli ㄹishlatiladi.

예: 가: 어제 뭘 했습니까?

나: 집에서 친구들이랑 같이 차를 마시면서 음악을 들었습니다.

A: Kecha nima qildingiz?

B: Uyda do‘sralrim bilan birga choy ichib musiqa tingladik.

**Predikativ (kesim) kelishigi qo’shimchasi** (사술격조사) 이 otga qo’shilib otni

<sup>3</sup> 남기심 “외국인을 위한 한국어” 문법 대한민국, 서울, 커뮤니케이션북스, 2005 .64

kesimga aylantiradi. Bunday hollarda u fe'lga o'xshaydi. Ammo predikativ kelishigi qo'shimchalari gaplarda erkin joylashishi bilan fe'llardan ajralib turadi. Ayrim adabiyotlarda predikativ kelishigi kesim kelishigi deb ham ko'rsatiladi.

예: 제 친구는 화가이다.

Mening do'stim rassom.

**Qaratqich kelishigi** (관형격조사: 소유격조사) narsaning shu kelishikdagi otdan anglashilgan boshqa narsaga qarashli ekanligini bildiradi. Koreys tilida qaratqich kelishigining asosiy morfologik ko'rsatkichi ۋەhisoblanadi. Qaratqich kelishigi ot so'z turkumiga qo'shilip, ushbu ot, odatda, boshqa bir so'zni o'ziga qaratib keladi va "qaratuvchi" deb ataladi. Qaratilgan so'z esa qaralmish deyiladi.

예: 가: 이 것은 누구의 가방입니까?

나: 이 것은 선생님의 가방입니다.

A: Bu kimning sumkasi?

B: Bu o'qituvchimizning sumkasi.

**To'ldiruvchi kelishigi** (보격조사) 보ۋەyasovchi qo'shimcha deb ham ataladi. To'ldiruvchi kelishigining qo'shimchalari ئى/گەbosh kelishik qo'shimchalari ئى/گەdan 아니다 va 되다 fe'llari bilan boshqarilganligi bilan farq qiladi. Agar oldingi bo'g'in undosh harf bilan tugagan bo'lsa, ئىqo'shimchasi qo'shiladi, aksincha, unli harf bilan tugagan bo'lsa, گەqo'shimchasi qo'shiladi. Ular o'zbek tiliga "bo'lmoq, emas" tarzida tarjima qilinadi.

예: 가: 이 것은 네 사진입니까?

나: 아니요, 제 사진이 아닙니다.

A: Bu sening rasmimgmi?

B: Yo'q, bu mening rasmim emas.

**Atash kelishigi** (호격조사) ayrim grammatik adabiyotlarda chaqiruv kelishigi deb ham ataladi. 아/야, 어/여 chaqiruv kelishigining morfologik shakllari hisoblanadi. Koreys tilida biror kishini chaqirganda uning ismi qanday bo'lsa shunday chaqiriladi yoki odamning ismiga chaqiruv kelishigi qo'shimchasini qo'shib chaqiriladi va u tarjima qilinmaydi.

예: 철수야, 어디 가니?

Cholsu, qayerga boryapsan?

**Ravish kelishigi** (부사 격조사) ba'zan holat kelishigi deb ham ataladi. Ravish kelishigi qo'shimchalari otga qo'shiladi. Hamda holatni bildirib keladi. Ravish kelishigi qo'shimchalari oldidagi ot va kesimga ko'ra ular har xil ma'nolarda ishlatiladi va juda aniq voqeani ifodalaydi. Bu qo'shimchalar otga qo'shilip, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish va vosita manolarini beradi. Bosh va tushim

kelishiklari qo'shimchalariga nisbatan, ravish kelishigi qo'shimchalari gapda deyarli tushirib qoldirilmaydi va qisqarmaydi. Ravish kelishigini o'zi anglatgan ma'nolariga ko'ra bir nechta turlarga bo'lib ko'rsatishimiz mumkin. Jo'nalish kelishigining bir necha shakllari mavjud. Odam va hayvonlarga nisbatan **에**게 va **한테** shakllari qo'llaniladi. Qolgan barcha hollarda **에**ishlatiladi.

나는 한국에 유학하러 가고 싶어요.

Men Koreyaga o'qish uchun borishni xoxlayman.

께 qo'shimchasining **한테** va **에**게 qo'shimchalariga nisbatan hurmat ma'nosi kuchli, shu sababli ham bu shakl o'zidan katta yoshdagilarga nisbatan qollaniladi.

예: 선생님께 안부를 전해 주세요.

O'qituvchimizga salom aytib qo'ying.

**O'rın va chiqish kelishigi** (처격조사) **에** / **에서** / **에게(서)** / **한테(서)** **에** payt kelishigi (시간이 부가격조사) vaqt ma'nosidan tashqari, o'rın ma'nosini (처소의 부사격조사) ham beradi. Bu qo'shimcha ba'zan **에서** qo'shimchasi bilan sinonim bo'lib keladi.

제가 산 책이 어디에 있는지 압니까?

Men sotib olgan kitobni qayerdaligini bilasizmi?

**Vosita kelishigi** (조격조사) ba'zan vosita kelishigi qo'shimchasi o'rinni ifodalaydigan qo'shimcha deb ham ataladi. Vosita kelishigining Grammatik ko'rsatkichlari -로va -으로 qo'shimchalari hisoblanadi. Vosita kelishigining asosiy ma'nosi qandaydir harakatning vositasi yoki usulini ko'rsatishdir. Agar ot unli harf bilan tugagan bo'lsa, -로 qo'shimchasi qo'shiladi. Ot -은 dan boshqa undosh harflar bilan tugagan bo'lsa -으로 qo'shimchasi qo'shiladi.

예: 고향에 버스로 갑니다.

Qishloqqa avtobusda boraman.

**Kelishik qo'shimchalari transpozitsiyasi.** Kelishik affikslari otning boshqa so'zlar bilan grammatik aloqasini ta'minlovchi eng faol kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shu bois kelishik kategoriyasiga mansub bo'lgan affikslar nutqiy jarayonda o'zaro hamda boshqa turli birliklar bilan ma'nodoshlik munosabatlariga ham ega bo'ladi. Ushbu bobda biz koreys tilida kelishik qo'shimchalarining bir-birini o'rnida qo'llanilishi, ya'ni kelishiklar sinonimiysi va boshqa birliklarning kelishik qo'shimchalari o'rnida kelishini ko'rib chiqamiz. O'zbek tilida ayrim hollarda kelishik qo'shimchalari bir-birining o'rnida qo'llanilib kelishi mumkin. Ular o'zaro sinonimlik xususiyatiga ega.

**M:** Bolalardan biri - bolalarning biri.

Bu yerda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -ning va chiqish kelishigi qo'shimchasi -dan bir-biri bilan sinonim bo'lib kelyapti. Biz shu kabi ayrim

jumlalarni hosil qilishda har ikkala kelishik qo'shimchasini qo'llasak, ham xato hisoblanmaydi.

Otni mindim - otga mindim.

Bu jumlalarda esa tushum kelishigi qo'shimchasi -ni va jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga o'zaro sinonim bo'lib kelyapti. Koreys tilida ham xuddi o'zbek tilidagi kabi ayrim kelishik qo'shimchalari bir-biri bilan sinonim bo'lib kela oladi. Kelishik qo'shimchalari ayrim so'zlar tarkibida qotib qolgan holda o'z ma'nosini yo'qotadi.

예: 친구한테서 취미를 물어 보세요.

Do'stingizdan qiziqishini so'rab ko'ring.

친구의 취미를 물어 보세요.

Do'stingizning qiziqishini so'rab ko'ring.

Ushbu jumlalarda chiqish kelishigi (처격조사) qo'shimchasi 한테서 va qaratqich kelishigi (관형격조사) qo'shimchasi 의 bir- biri bilan sinonim bo'lib kelyapti. Lekin koreys tilida ba'zi mustasno holatlarni ham kuzatishimiz mumkin.

예: 친구에게 취미를 물어 보세요.

Ushbu gap o'zbek tiliga "Do'stingizga qiziqishini so'rab ko'ring" tarzida tarjima qilinadi. Bu gap o'zbek tili grammatik qoidalariga mutlaqo mos kelmaydi. Ya'ni bu yerda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'llab bo'lmaydi. Koreys tilida esa bunday holatni kuzatishimiz mumkin. Bu xato hisoblanmaydi.

아파트의 난방이 잘 된다.

Xonaning isitish tizimi yaxshi ishlayapti.

Bu gapni koreys tilida quyidagicha ifodalashimiz ham mumkin.

아파트가 난방이 잘 된다.

Bu yerda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -의 o'rnida bosh kelishik qo'shimchasi -가 qo'llanilmoqda.

학교에 가고 있어요.

Maktabga boryapman.

학교 so'ziga qo'shilib kelgan jo'nalish kelishigi (여격조사) qo'shimchasi 에 o'rnida vosita kelishigi (조격조사) qo'shimchasi -로 ni qo'llasak ham xato hisoblanmaydi.

학교로 가고 있어요.

Kelishik qo'shimchalari ayrim so'zlar tarkibida qotib qolgan holda o'z ma'nosini yo'qotadi hamda ba'zi kelishik qo'shimchalari o'rnida qo'llanilib kelishi mumkin. Bundan tashqari koreys tilida ayrim so'zlar qoidadan mustasno holda o'ziga kerakli kelishik qo'shimchalarini talab qiladi. Garchi biz ularni o'zbek tiliga tarjima qilayoqganımızda ba'zi noqulayliklarga duch kelsakda, ularni qaysi

kelishik qo'shimchasi o'rnida qo'llanilayotgan bo'lsa, o'sha kelishik qo'shimchasi tarzida tarjima qilamiz.

버스를 탄다 - bu jumla aslida 버스에 탄다 tarzida bo'lishi kerak edi. Lekin "타다" ya'ni "minmoq" fe'li o'ziga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi 에 ni emas, tushum kelishigi qo'shimchasi -를 ni qabul qiladi. Agar biz suhbatdoshimizga "버스에 탔어요" deb aytsak, qo'pol xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Demak, koreys tilida kelishik qo'shimchalari har doim ham bir-biri bilan ma'no ko'chish hodisasi bo'la olmas ekan. Aksincha, yuqorida biz kelishik qo'shimcha-larining bir-birining o'rnida almashinib kelishini kuzatdik. Bundan tashqari koreys tilida boshqa qo'shimchalar xususan yordamchi qo'shimcha (보조사) lardan biri 은/는 qo'shimchasing kelishik qo'shimchalari o'rnida qo'llanilishini kuzatishimiz ham mumkin. Yordamchi qo'shimcha 은/는 kelishik qo'shimchalari o'rnida kelgan jummalarni biz o'zbek tiliga tarjima qilganimizda, 은/는 qaysi kelishik qo'shimchasi o'rnida kelgan bo'lsa, xuddi o'sha kelishik qo'shimchasing ma'nosи saqlangan holda tarjima qilinadi.

예: 저는 남동생이 있어요.

Bu gap o'zbek tiliga "Men singlim bor" deb emas, "Mening singlim bor" deb tarjima qilinadi. 저 so'ziga qo'shilib kelgan 는 qo'shimchasi qaratqich kelishigi (관형격조사) qo'shimchasi 의 o'rnida qo'llanilgan. Ya'ni jumla aslida quyidagi ko'rinishda bo'lishi kerak edi.

예: 저의 남동생이 있어요.

Navbatdag'i keltirmoqchi bo'lган misolimizda yordamchi qo'shimcha 은/는 chiqish kelishigi (처격조사) qo'shimchasi에서 o'rnida kelganini kuzatishimiz mumkin.

예: 서울은 정말 차가 많지요?

Bu gap o'zbek tiliga "Seulda chindan ham mashina ko'p-a?" tarzida tarjima qilinadi. Lekin koreys tilida quyidagi holat ko'proq uchraydi.

예: 서울에서 정말 차가 많지요?

Yordamchi qo'shimcha 은/는 kelishik qo'shimchalaridan biri qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 o'rnida kelishi ham mumkin.

예: 동생은 키가 작습니다.

Ukamning bo'yi kalta.

Ko'rib turganimizdek, bu jumla tarjimasida 은 qo'shimchasi qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 tarzida shakl olyapti.

"Ukamning bo'yi kalta." ushbu jumlaning koreys tilidagi haqiqiy muqobil variant esa quyidagicha bo'ladi. "동생의 키가 작습니다."

"소라는 오빠가 없어요." Bu gapda ham -는 qo'shimchasi qaratqich kelishigi

qo'shimchasi 의 o'rnida qo'llanilmoqda. “소리의 오빠가 없어요” jumlasida qaratqich kelishigi qo'shimchasi 의 o'z o'rnida qo'llanilmoqda. Bu gapning tarjimasi quyidagicha bo'ladi. “Soraning akasi yo'q.”

Endi biz yordamchi qo'shimcha 은는 ning bosh kelishik (주격조사) qo'shimchaları 이/가 o'rnida kelishini ko'rib chiqamiz.

예: 오늘은 몇 일입니까?

Bugun nechanchi sana?

Bu jumlani quyidagi holatda ko'rishimiz ham mumkin.

예: 오늘은 몇 일입니까?

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Keling, ulardan ayrimlarini har ikkala holatda ham ko'rib chiqamiz.

예: 제 생일은 10 월 7 일입니다.

제 생일이 10 월 7 일입니다.

Mening tug'ilgan kunim 7-oktabr.

철수가 아침 일찍 학교에 갑니다.

철수는 아침 일찍 학교에 갑니다.

Cholsu ertalab barvaqt mакtabga boradi.

엘메나 씨는 학생입니다.

엘메나 씨가 학생입니다.

Yelena o'quvchi.

Xulosa qilinganda, kelishik qo'shimchaları o'zaro o'rin almashinib kelib, yordamchi qo'shimchalarıning kelishi gapdagi eganing yanada aniqroq ifodalanishiga xizmat qiladi. Bu kabi jumlalarni har ikkala holatda qo'llasak ham xato hisoblanmaydi. Aksincha, nutqimizni takroriyliklardan saqlaydi. Bunday xususiyatlarning borligi esa, tillar grammatikasining qanchalik boyligidan dalolatdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi, 1995
2. Ne'matov H, Sayfullayeva R, Qurbanova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari, 1999
3. Sh.Safarov "Semantika" Toshkent 2013 12-bet
4. Eshimova. Sh. K Samarcand- Koreys tili kelishiklar tizimi 2019.12-b
5. Seungho. (2003). Lexical semantic Structures and argument alternations of movement verbs in Korean.
6. Трофименко О. А. Корейский язык. Справочник по грамматике. — М.: Живой язык, 2015. — С. 219.
7. 한국어 의미론" 박철우 모바일교보문고 2023

8. 임지현 '중세한국어 접미사' 한국 연구 /275~305쪽 2022.2.
9. 남승호 한국어 이동 동사의 의미구조와 논항교체- 서울대학교 Nam,  
10이기문 새국어사전 서울 2004. -2150 b. 새한노사전 서울:  
11. 한국외국어대학교출판부 2009. 1312 b.

**Internet saytlari**

1. <https://encykorea.aks.ac.kr/제2 기 역사적 의미론>
2. <https://encykorea.aks.ac.kr/제3 기 기술적 의미론>

**JAMIYAT TARAQQIYOTIDA KUTUBXONA AXBOROT XIZMATI VA  
AXBOROT OLİSH MADANIYATINI O'RNI**

*Xudoyqulova Nodira Murodovna*

*Samarqand viloyati PMM*

*Ijtimoiy amaliy fanlarni o'qitish  
metodikasi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uluksiz ta'lif tizimining barcha shakllarida doimiy tarzda umumta'lif va umummadaniy darajasini oshirishga intilish foydalanuvchilarning kutubxona axborot xizmati va axborot olish madaniyatini o'rni uning imkoniyatlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot hizmati, diqqatni jamlash, madaniyat, texnik ko'nikmalar, ma'lumot, ehtiyoj.

Kutubxonalar insoniyat va jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida kishilarni tarbiyalash, ularning aqliy salihiyatini rivojlanish vositasi bo'lib kelgan. Kutubxonalar barcha sohadagi bilimlarni to'plash usuli sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishda va insoniyat taraqqiyotida kata ahamiyatga ega bo'lgan. Inson tafakkurini rivojlanishida kutubxona va kitob doimo hamroh bo'lgan. Insoniyat yaratgan muomala vositalari ichida eng ishonchlisi va qulayi kitobdip. Barkamol inson tarbiyasi kishilarni ma'naviyati madaniyati, odob -axloqi bilim saviyasi, jamiyatda o'ziga xos o'rinnegi egallashi faqt kitobdan olgan bilimiga bog'liq chunki u inson aql zakovati va bilimlarini saqlash hamda kehg yoyishning va targ'ibot qilishning mukammal quroolisir. Kitob va kutubxona kishilarga insoniyat erishgan yutuqlarini bilish imkonini beradi, dunyoda tinchlik o'rnatishtiga mustahkamlashga xizmat qiladi. Agar insoniyat yaratgan yozuvlar, kitoblar bo'limganda edi ularni saqlovchi kutubxonalar faoliyat yuritmaganda edi odamzod o'zining o'tmishini, bilim donolik hikmatlarini ham bilmagan bo'lar ilm fanni taraqqiy ettira olmagan bo'lar edi. Jami ixtiolar kashfiyotlar taraqqiyot darajasi ham kitoblar, kutubxonalar tufaylidir, "Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir" degan nemis yozuvchisi S. Sveyg. Jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Fuqarolarning barcha sohalari bo'yicha bilimlarni, murakkab texnologiyalarni egallaganligi, yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratishga intilishi, axloqiy pokligi, mustaqil erkin tafakkur yuritishi ma'naviy barkamollikning zaminidir.

Islohotlar Strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish jamiyat a'zolarining qanday intellektual salohiyatga ega ekanligi, qanday ideallarga amal qilishi, ma'naviy yetukligi darajasiga bog'liqidir. Shu bois foydalanuvchilarga

kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish, islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashuvchi, daxldorlik tuyg‘usiga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan komil insonni shakllantirish, jamiyat a’zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot sohasidagi ulkan o‘zgarishlarga daxldorligi hissini tarbiyalash orqali faolligini oshirish vazifalari kutubxonalarining faoliyatini asosi sifatida foydalanuvchilar bilan ishlashni ham muntazam takomillashtirib borishni talab qiladi. Bugungi kunda komil inson haqidagi fikrlar va qarashlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida, Yoshlar siyosati bo‘yicha davlat Dasturida va boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta’lim tizimini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, sog‘lom, barkamol, ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan.,.

Ma’naviyati boy insongina komil inson bo‘la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg‘un bo‘lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, ma’rifiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson komil bo‘ladi. Komillikning bosh mezoni insoniylik bo‘lib, insonga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar sohibi bo‘lish eng ulug‘ kamolotdir. Bundan tashqari insonni go‘zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobi bo‘lib, ular odamni yuksaklikka ko‘taradi, katta obro‘ va shuhrat keltiradi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning barcha yo‘nalishlari kutubxona – axborot xizmati darajasiga chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid bilimlarni egallashda foydalanuvchilarining ma’naviy ehtiyojlarini va talablarini maqsadga muvofiq ravishda qondirish, muayyan zarur nashr mahsulotlari va axborotlarni tavsiya etish ulardan ma’naviy barkamollik yo‘lida foydalanishlarida kutubxonachilar yaqindan yordam berishlari mumkin.

Jamiyat umumiyligi ma’lumot darajasining oshib borishi barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy shart-sharoitlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda maktabgacha tarbiyadan tortib oliy ma’lumotli mutaxassislikkacha – turli ta’lim shakllariga alohida e’tibor berilmoqda. Uluksiz ta’lim tizimining barcha shakllarida doimiy tarzda umumta’lim va umummadaniy darajasini oshirishga intilish foydalanuvchilarining kutubxona – axborot xizmatiga bo‘lgan ehtiyojlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Kutubxona – axborot xizmati ko‘rsatishning maqsadi jamiyatning maqsadidan kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, kutubxona – axborot xizmatining asosiy maqsadi – fanning turli sohalariga oid bosma nashr mahsulotlari va axborotlarni mutolaa va tahlil qilish orqali foydalanuvchilarda komillikka intilish tuyg‘usini uyg‘otishdir.

Kutubxona – axborot xizmati jarayonida quyidagi yo‘nalishni kuchaytirish orqali barkamol avlod tarbiyasida kutubxonachilar o‘zlarining munosib hissasini qo‘shishlari mumkin:

- 1) Kutubxona fondida ma’naviy – axloqiy mazmundagi saralangan manbalarning

mavjud bo‘lishiga erishish va foydalanuvchilarga tavsiya qila bilish;

2) Kutubxonada tarbiyaviy jarayonlarning ommaviy, guruhli va yakka tartibdagi shakllarining muntazam va ijobiy natijali bo‘lishi;

3) Kutubxonalarning foydalanuvchilar bilan muloqotining doimiy va sifatli tarzda amalga oshirilishi, bilimli, o‘z ishining fidoyilari bo‘lgan mutaxassislar bilan

Kutubxona jamiyatning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun uning faoliyati mamlakatda qabul qilingan qonunlar tomonidan boshqariladi. Lekin, axborot almashuvining kuchayishi, ayniqsa, internet vositalarining kuchayishi oqibatida axborot makoni kengayib bir butun jahon axborot makoni shakllandi.

Shunga ko‘ra undan foydalanishga oid qonunlar, qoidalar ham xalqaro miqyosdagi meyorlarga amal qilishni talab qiladi.

Bugungi kunda kutubxonalar bilim olishning asosiy maskanlaridan biri bo‘lib, bu yerda xar bir kitobxonlar ma’naviy madaniyat, tafakkur durdonalarini o‘rganadi. Ushbu o‘rganish samarali bo‘lishi uchun mavjud manbalardan qanday foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirib olish doimiy va muntazam kunikmaga aylantirish har qachongidan ko‘ra dolzarb axamiyat kasb etmokda.

Ko‘pchilik kitobxonlar o‘zları o‘rganayotgan manbalarning ko‘pligi va ularni izlash tizimlarining xaddan tashkari murakkab ekanligini ko‘rib, sarosimaga tushib kolishi mumkin. Shuning uchun kutubxonachilarning asosiy vazifalaridan biri kutubxona axborot xizmati jarayonini iloji boricha soddalashtirish va tushunarli tarzda tashkil etishga e’tibor berishdir. Kitobxonlarning ma’lumot izlash jarayoni esa ularning kerakli ma’lumotni topgan va mutolaa paytida olgan zavqi darajasidagi mashg‘ulotga aylanishiga xarakat kilinishi kerak. Kutubxonachi foydalanuvchilarniig bilim olishi yo‘lidagi doimiy maslahatchisi sifatida kerakli ma’lumotlarni osonlik bilan topish va samarali foydalanish uchun kerak bo‘ladigan malakalarni shakllantirishga yordam berishi zarur kitobxonlarning muayyan ma’lumotlarni olishlari uchun mustaqil faoliyat ko‘rsatishlariga yordam berish orqali ularda axborot madaniyatini shakllantirib boriladi.

Axborot madaniyati, avvalo, axborotga bo‘lgan ehtiyojni his etish, uni topish, saralay bilish va baholash, tezkor tahlil qila bilish va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan malakalar majmuasidir.

Axborot madaniyatini shakllantirish bibliografik tayyorgarlikdan boshlanib, o‘z ichiga kutubxona bilan tanishtirish, turli mashg‘ulotlar, ma’lumotlarni topishiga yordam beruvchi belgilar bilan tanishish, ma’lumot berish vositalaridan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarni yaratish kabi tadbirlar majmuasidan iborat bo‘lib, foydalanuvchilarda yangi bilimlar xosil kilish malakasini shakllantirishni o‘z oldiga maqsad kilib qo‘ygan faoliyatdir.

Yangi texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi sharoitida axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’lumot izlash, tanqidiy va tahliliy

yondashuv, tegishli ma'lumotlarga asoslangan xolda qaror qabul qilish, bilimni yangi vaziyatlarga yo'naltirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar yaratish, ilmiytadqiqot bilan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi xamkorlikni mustaxkamlash, bilim almashish kabi faoliyatlarning asosidir. Axborot madaniyatini shakllantirishda kutubxonachi foydalanuvchi uchun asosiy o'rinni egallaydi.

Bundan tashqari kutubxonachilar o'z malakalarini yangi yo'nalishdagi talablarga mos ravishda oshirib borishlari zarur bo'lib, bu yo'nalishlar:

- axborot manbalarini baholash va ularning sifatini aniqlash; – ma'lumot izlash borasidagi murakkab texnika va vositalardan foydalanish va qo'llay bilish;
- kitobxonlarni tabiatini o'rganish;
- kitobxonlarni ehtiyoji, mavjud muhit va vaziyatni inobatga olish;
- kitobxonlarni uchun axborot manbalarini to'plash va tartibga solish;
- ularga o'z-o'ziga yordam berish usullarini o'rgatish, axborotini baholash va undan foydalanishga ko'maklashish;
- muayyan savollarga javob berishdan ko'ra kitobxonlarni bat afsil va keng ko'lamli axborot topishda ko'maklashish;
- asosiy maqsad kitobxonlarnining ehtiyojini birinchi o'ringa qo'yish, ushbu ehtiyojni qondirishda har bir kitobxonlarnining ishida, ilmiy faoliyatida kutubxona xizmatining o'rnini va ahamiyatini chuqur his qilish va uni anglab yetishiga erishishdan iboratdir.

Bu jarayonda kitubxonachi shaxsining bilimi ,malakasi ,yangilikka intiluvchsnligi, o'z kasbini qonuniy asoslarini yaxshi bilishi, va kutubxonachi kasbiga sadoqatliligi muhum ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. “ Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020.y.
2. Mirziyoyev Sh. M. “ Yangi O'zbekistonning taraqqiyot solnomasi”. Toshkent, “O'zbekiston” NMIO‘,2020 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olujanob halqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O'zbekiston”, 2017 y.
- 4.Umarov A.O., Mutolaa madaniyati: Shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – Toshkent, Fan, 2009
- 5.Nosirov O’., “Kutubxona-axborot xizmati:nazariyasi va amaliyoti”,-Toshkent,2023 y
- 6.Berdieva Z.”,Kutubxonashunoslik “.-Toshkent ,”Ilm ziyo”,2013y.

## ADABIYOT DARSLARIDA JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARINING ASARLARIDAN FOYDALANISH

*Nilufar Samiyeva Umarjon qizi*

*Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 27-maktab*

*Ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyandalarining asarlaridan foydalanishning metodik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Jadid adabiyoti vakillarining ijodi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni milliy va ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada jadid asarlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Jadid adabiyoti, metodika, ta'lim jarayoni, milliy qadriyatlar, o'quvchilar.

**Annotation:** This article is devoted to the study of the methodological foundations of using the works of Jadid literature representatives in literature lessons. The work of Jadid literature representatives serves to broaden the worldview of students, to educate them in the spirit of respect for national and spiritual values. This article analyzes effective methods of integrating Jadid works into the educational process.

**Keywords:** Jadid literature, methodology, educational process, national values, students.

**Аннотация:** Данная статья посвящена исследованию методической основы использования произведений современной литературы на уроках литературы. Творчество представителей современной литературы служит расширению мировоззрения учащихся, воспитанию в них духа уважения к национальным и духовным ценностям. В данной статье анализируются эффективные методы интеграции современных произведений в учебный процесс.

**Ключевые слова:** джадидская литература, методика, образовательный процесс, национальные ценности, студенты.

### KIRISH

Jadid adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan ma'naviy-ma'rifiy uyg'onish davrining mahsulidir. Ushbu davrda jadidlar zamonaviy bilimlar, milliy uyg'onish va taraqqiyotni targ'ib qiluvchi asarlar yaratib, jamiyatning turli sohalarida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Ularning asosiy maqsadi xalqni savodli qilish, yosh avlodni ilm-ma'rifat va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash edi.

Jadid adabiyotining asosiy xususiyati uning zamonaviylikka intilishida namoyon bo‘ladi. Bu adabiyot vakillari, xususan, Abdulla Avloniy, Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiyadolat va ta’limtarbiya masalalariga katta e’tibor qaratganlar. Ularning ijodi faqat badiiy asarlar bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim tizimini isloh qilish va yangi maktablarni tashkil etishda ham katta rol o‘ynagan.

Adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘rgatishning ahamiyati beqiyosdir. Bunday asarlar o‘quvchilarning tarixiy xotirasini mustahkamlash, ularni milliy va ma’naviy qadriyatlargacha hurmat ruhida tarbijalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, jadid asarlarining zamonaviy dars jarayoniga integratsiyasi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Jadid adabiyotidan adabiyot darslarida foydalanish o‘quvchilarga katta foyda keltiradi, chunki bu ijod namunalari ta’lim jarayoniga bir qancha ijobiy jihatlar olib kiradi:

**Ma’naviy kamolot:** Jadid adabiyotining asarlari axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manbadir. Abdulla Avloniy, Fitrat kabi yozuvchilarning asarlarida halollik,adolat,o‘z-o‘zini tarbijalash kabi muhim fazilatlar ilgari suriladi. Bu o‘quvchilarni hayotiy masalalarni anglashga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

**Milliy o‘zlikni anglash:** Jadid adabiyoti orqali o‘quvchilar o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosini chuqurroq o‘rganadi. Bu ular uchun o‘z milliy qadriyatlarga hurmat va iftixon tuyg‘usini shakllantiradi.

**Ijodiy fikrlash:** Jadid adabiyoti asarlarini muhokama qilish va tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Interfaol metodlar orqali darslar yanada qiziqarli va samarali kechadi.

**Estetik tarbiya:** Bu asarlar badiiy til va uslubiy jihatdan yuqori darajada bo‘lib, o‘quvchilarda badiiy didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish:** Jadid adabiyoti qahramonlari ijtimoiyadolat va ma’rifatparvarlikka da’vat etib, o‘quvchilarda jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatni anglashni kuchaytiradi.

Shu sababli, adabiyot darslarida jadid adabiyotidan foydalanish nafaqat o‘quvchilarni o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirishlariga yordam beradi, balki ularning hayotga tayyorgarlik ko‘rishlarida ham beqiyos rol o‘ynaydi. Bu asarlar orqali yosh avlodga ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni yetkazish va ularni kelajakda yetuk shaxs sifatida shakllantirish mumkin.

Mazkur maqola aynan adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyandalarining asarlaridan foydalanishning metodik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Unda jadid adabiyotining mazmuni va uning tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, dars jarayonida bunday asarlarni o‘rgatishning samarali usullari tahlil qilinadi.

## ASOSIY QISM

Jadid adabiyoti namoyandalarining ijodiga umumiy nazar Jadid adabiyoti vakillari xalqni ma'rifatli qilish va milliy uyg'onishga da'vat etuvchi asarlar yaratgan. Xususan, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari [1.43,67] axloqiy tarbiya borasidagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Fitratning "Oila" asari [2] esa oilaviy qadriyatlarning milliy va zamonaviy jihatlariga urg'u beradi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa o'zining maqola va she'rlari orqali xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlagan.

Jadid adabiyoti vakillari o'z asarlarida zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni o'zlashtirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, milliy madaniyatni rivojlantirish kabi masalalarni keng yoritgan. Ularning asarlari bugungi kun o'quvchilari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyot darslarida jadid asarlarini o'rgatishning metodik asoslari Jadid adabiyotidan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning tahliliy fikrlesh qobiliyatlarini rivojlantirish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Quyidagi metodlar dars jarayonida samarali qo'llanilishi mumkin:

**Muammoli ta'lif metodlari:** O'quvchilarga jadid asarlaridagi asosiy muammolarni tahlil qilish va ularning yechimini izlash topshiriladi. Masalan, Avloniyning axloqiy qadriyatlar haqidagi fikrlarini zamonaviy jamiyat bilan taqqoslash.

**Interfaol usullar:** Jadid asarlaridagi voqealarni sahnalashtirish, rolli o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

**Guruhlari muhokamalar:** O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, jadid adabiyoti asarlarini birlashtirishda tahlil qiladilar va o'z fikrlarini sinf oldida taqdim etadilar.

O'quvchilarning jadid adabiyoti orqali ma'naviy kamolotini ta'minlash Jadid adabiyoti asarları nafaqat badiiy ahamiyatga, balki tarbiyaviy xususiyatlarga ham ega. Masalan, "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari orqali o'quvchilar o'zini tutish madaniyati, halollik,adolat kabi axloqiy qadriyatlarni o'rganadilar. Fitratning "Oila" asari esa oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Shuningdek, jadid adabiyotining tarbiyaviy ahamiyati uning milliy qadriyatlarni targ'ib qilishida ko'rindi. Bunday asarlar yosh avlodni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ularning tahlili orqali o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyati, vatanga bo'lgan muhabbati oshadi.

## MUHOKAMA

Adabiyot darslarida jadid adabiyoti asarlarini o'rgatishning metodik asoslarini qo'llash orqali nafaqat o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish, balki ularning ma'naviy kamoloti va milliy o'zlikni anglash hissini rivojlantirish mumkin. Bu jarayon nafaqat dars jarayonini qiziqarli qilish, balki yosh avlodni zamonaviy bilim va ma'naviyat uyg'unligida tarbiyalashga xizmat qiladi. Masalan, jadid asarlaridan

foydalangan holda tashkil etilgan interfaol darslarda o‘quvchilar milliy va axloqiy qadriyatlar mohiyatini chuqur anglaydilar[3.78,112]. Guruhli muhokama va rolli o‘yinlar orqali ular o‘z fikrlarini erkin ifoda etishni, shuningdek, ijtimoiy masalalarni hal qilishda jamoaviy yondashuvni o‘rganadilar.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida milliy o‘zlikni saqlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jadid adabiyoti asarlaridan foydalanish milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu asarlar yosh avlodga xalqimizning ma’naviy merosini yetkazish, ularda tarixiy xotira va vatanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Xususan, Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘zlarini tutish madaniyati, insoniylik vaadolat kabi fazilatlarni o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, jadid adabiyotining interfaol metodlar bilan uyg‘unlashuvi o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Masalan, o‘quvchilar jadid asarlaridagi qahramonlarning muammolarini tahlil qilish orqali nafaqat badiiy asar mazmunini o‘zlashtiradilar, balki ijtimoiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

### XULOSA

Adabiyot darslarida jadid adabiyoti namoyandalarining asarlaridan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlar o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minalash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va zamonaviy bilimlarni egallashlariga xizmat qiladi. Jadid adabiyotidan foydalangan holda tashkil etilgan darslar orqali o‘quvchilar badiiy-estetik didni rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Jadid adabiyoti vakillarining asarlari nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Xususan, Abdulla Avloniy, Fitrat va Munavvarqori kabi yozuvchilarning asarlari bugungi kun o‘quvchilari uchun ham dolzarbdir. Ularning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodni milliy va ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu asarlar orqali o‘quvchilarning tarixiy xotirasi mustahkamlanadi va ularda vatanga bo‘lgan muhabbat shakllanadi [4.114].

Shu bilan birga, jadid adabiyotining ta’lim jarayoniga integratsiyasi darslarni qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi, ularning fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5.97]. Jadid adabiyoti orqali yosh avlodni tarbiyalash nafaqat ularning shaxsiy kamoloti, balki milliy o‘zlikni saqlash uchun ham muhimdir.

Kelgusida adabiyot darslarida jadid asarlarini yanada chuqurroq o‘rgatish va ularning zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashuvini ta’minalash lozim. Bu esa

o‘quvchilarning nafaqat bilim olish, balki ma’naviy barkamollik sari intilishlariga ham yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, – 2004.
2. Fitrat A. Oila. – Toshkent: Cho’lpon, – 2013.
3. Abdurashidxonov M. Yer yuzi. – Toshkent. – 2010.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O‘zbekiston, – 2005.
5. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Muhamarrir, – 2021.

## ZAMINLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH

**Pulatov Gafurjon Ergashovich**

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti*

**Annotatsiya.** Odatda gruntlar qattiq mineral zarrachalardan, suyuqlikdan (suvdan) va gazdan (asosan havodan) tashkil topgan uch fazali tizim sifatida qaraladi. Ba`zi hollarda grunt tarkibida o`simlik va hayvonot dunyosi qoldiqlari ham bo`ladi va ularning nisbatan kam miqdorlari ham grunt xossalarni keskin o`zgartirishi mumkin.

Ushbu maqolada zaminlar haqida umumiy ma`lumotlar berilgan bo`lib ularning xususiyatlari va turlari kengroq tushuntirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Zamin, grunt, lyoss, o`ta cho`kuvchan, magmatik, qoya grunt, metamorfik, yirik qum, graviya.

Inshootdan uzatiladigan bosimni o`ziga qabul qiladigan grunt qatlami **zamin** deyiladi. Bunda tabiiy va sun`iy zaminlar bir-biridan farqlanadi. Agar poydevor ta`sir zonasidagi gruntdan uning tabiiy tuzilishini o`zgartirmasdan foydalanilsa, u tabiiy zamin bo`ladi. Sun`iy zaminda esa grunt turli usullar bilan zichlanadi yoki qotiriladi. Inshoot uchun zamin, muhit yoki qurilish materiali sifatida ishlatiladigan har qanday tog` jinsi **grunt** deyiladi. Ma`lumki, tog` jinslari fizikaviy (harorat, shamol, suv va boshqalar), kimyoviy va qisman biologik ta`sirlar natijasida o`z tuzilishini o`zgartirib (emirilib) boradi, bu esa xilma-xil gruntuarning hosil bo`lishiga olib kelgan.

Odatda gruntlar qattiq mineral zarrachalardan, suyuqlikdan (suvdan) va gazdan (asosan havodan) tashkil topgan uch fazali tizim sifatida qaraladi. Ba`zi hollarda grunt tarkibida o`simlik va hayvonot dunyosi qoldiqlari ham bo`ladi va ularning nisbatan kam miqdorlari ham grunt xossalarni keskin o`zgartirishi mumkin.

Amaldagi qurilish me`yorlari bo`yicha gruntuarning ikkita sinfiga bo`linadi: 1) qattiq zarrachalari o`zaro bikr bog`langan qoya gruntu; 2) qattiq zarrachalari kuchsiz bog`langan gruntu.

**Qoya gruntu.** Yuqori harorat ostida suyuq holda yer qa`ridan otilib chiqib, so`ng qotgan (**magmatik**) yoki yerda sodir bo`lgan o`zgarishlar natijasida chuqur qatlamlarga tushib qolib, yuqori harorat, bosim va kimyoviy jarayonlar natijasida qattiq zarrachalari o`zaro jipslashib qolgan (**metamorfik**) tog` jinslari qoya gruntuarning asosiy turlari hisoblanadi. Granit, sienit, bazalt, diabaz, porfir va shunga o`xshashlar magmatik jinslarga, marmar, slanets, gneys va h.k. metamorfik tog` jinslariga misol bo`la oladi. Shuningdek, ba`zi bir cho`kindi tog` jinslari ham, agar ularning qattiq zarrachalari o`zaro bikr bog`lanib (tsementlanib) qolgan bo`lsa, qoya gruntu sinfiga kiradi.

Qoya gruntuarning mustahkamligi ularni tashkil etuvchi zarrachalarning

mustahkamligiga yaqin, teng yoki undan katta ham bo`lishi mumkin. Ularning suvga to`yingan holdagi siqilishga qarshiligi ko`pincha 5 MPa dan kam bo`lmaydi.

Qoya gruntlari xilma-xil tuzilishga va xossalarga ega bo`lishlari mumkin. Ularni bir-biridan farqlash va baholashda quyidagi ko`rsatkichlardan foydalaniadi:

$R_c$  - suvga to`yingan holdagi gruntning siqilishga vaqtinchalik qarshiligi;

$K_{sof}$  - yumshash koeffitsiyenti (gruntning suvga to`yingan va quruq holatlaridagi siqilishga vaqtinchalik qarshiliklarining nisbati);

$K_b$  – yemirilish (maydalanish) darajasi (yemirilgan va yaxlit grunt qismlari zichliklarining nisbati).

Gidrotexnika inshootlari qurilishida bundan tashqari qoya gruntdagи yoriqlarning solishtirma hajmini (g`ovakligini), gruntning suv o`tkazuvchanligini baholovchi filtratsiya koeffitsiyentini, grunt yaxlit qismining elastiklik modulini va gruntning suvda erish darajasini ham bilish lozim.

Siqilishga vaqtinchalik qarshiligi ( $R_c$ , MPa) bo`yicha:

o`ta mustahkam ( $R_c > 120$ );

mustahkam ( $120 > R_c > 50$ );

o`rtacha mustahkam ( $50 > R_c > 15$ );

kam mustahkam ( $15 > R_c > 5$ );

yarim qoya ( $R_c < 5$ ) gruntlari bir-biridan farqlanadi.

Yumshash koeffitsiyenti bo`yicha qoya gruntlari:

suvda yumshamaydigan ( $K_{saf} > 0,75$ );

yumshaladigan ( $K_{saf} < 0,75$ ) turlarga bo`linadi.

Yemirilish darajasiga ko`ra gruntlar:

yemirilmagan yaxlit ( $K_b = 1$ );

kuchsiz yemirilgan ( $1 > K_b > 0,9$ );

yemirilgan ( $0,9 > K_b > 0,8$ );

kuchli yemirilgan ( $K_b < 0,8$ ) holatlarda bo`lishi mumkin.

Magmatik kelib chiqishga ega bo`lgan qoya gruntlari eng ishonchli zamin bo`la oladi, chunki ular deyarli zichlanmaydi, yuqori mustahkamlikka ega, suv ta`sirida ularning minerallari erimaydi va o`z tanasidan suvni deyarli o`tkazmaydi. Shu sababli, dunyodagi baland tug`onlarning 30 % ga yaqini ana shunday gruntlar ustida qurilgan.

Metamorfik qoya gruntlarining fizikaviy va mexanik xossalari magmatik tog` jinslarinikiga ko`p jihatdan yaqin bo`lib, ular o`z tanasidan suvni deyarli o`tkazmasligi yoki juda sekin (yoriqlar mavjud bo`lganda) o`tkazishi mumkin. Yashil slanetsga o`xhash ba`zi bir jinslar sovuqqa chidamsiz, gilli slanetslar esa sovuqqa chidamsizligi bilan bir qatorda suv ta`sirida o`zlarining mustahkamligini ham yo`qotishi mumkin. Bundan tashqari ko`pchilik metamorfik qoya gruntlari tuzilishi bo`yicha bir jinsli emas.

**Cho`kindi tog` jinslaridan** hosil bo`lgan qoya gruntlarining mustahkamligi ham birmuncha yuqori, ammo ularning ba`zilari suv ta`sirida eruvchanlik xususiyatiga ega.

Bu gruntlarning ishonchliligi ulardagi qattiq zarrachalarni bog`lovchi minerallarning turiga bog`liqdir. Kvartsli va temirsimon minerallar bilan sementlangan qoya gruntlari suvda deyarli erimaydi, gilli sement bilan bog`langan gruntlar esa suv ta`sirida erib, o`zlarining bikrligini ham yo`qotishi mumkin.

Siqilishga vaqtinchalik qarshiligi 5 MPa dan kam bo`lgan mergellar, oxaktoshlar, alevrolitlar, argillitlar, burlar, toshuzlar va boshqalar yarim qoya gruntlari deb ataladi. Bu gruntlarning ko`pchiligi tashqi muhit ta`siriga chidamsiz bo`lib, gidrotexnika inshootlari qurilishida odatda ular sun`iy usullar bilan mustaxkmlanadi.

**Qattiq zarrachalari kuchsiz bog`langan gruntlar.** Bu gruntlarning xossalari ulardagi qattiq zarrachalarning miqdori va o`lchamlariga ko`p jihatdan bog`liqdir. Yirikligiga ko`ra qattiq bo`laklar yoki zarrachalar quyidagicha nomlanadi: s

illiq yoki qirrali xarsang tosh ( $d > 200$  mm);

qayroqtosh yoki qirrali tosh ( $d = 200...40$  mm);

shag`al va chaqirtosh ( $d = 40...2$  mm); qum ( $d = 2...0,05$  mm);

chang ( $d = 0,05...0,001$  mm); gil ( $d < 0,001$  mm).

Qattiq zarrachalarni yuqoridagi o`lchamlar bo`yicha farqlash faqat bir xil nomli zarrachalardan tashkil topgan gruntlarning o`ziga xos tomonlari va xossalari mavjudligiga asoslangan. Masalan, tarkibi faqat tosh yoki shag`aldan tashkil topgan grunt qattiq skeletga va yuqori mustahkamlikka ega, o`ta suv o`tkazuvchan, suvning kapillyar ko`tarilishi ularda kuzatilmaydi.

Zarrachalari kuchsiz bog`langan gruntlar o`z navbatida **yirik bo`laklı, qumli va gilli** gruntlarga bo`linadi.

Yirik bo`laklı gruntlarning tarkibida har xil o`lchamga va shaklga ega bo`lgan qattiq elementlar bo`lishi mumkin. Lekin ular massasining yarmidan ko`progini o`lchamlari 2 mm dan katta bo`lgan tosh yoki shag`al tashkil etishi kerak. Yirik bo`laklı gruntlar dastlabki tog` jinslarining harorat, suv, shamol singari fizikaviy omillar ta`sirida yemirilishidan hosil bo`lgan. Bosim ta`sirida kam siljishi, yuqori mustahkamlik va katta suv o`tkazuvchanlik ularning o`ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Yirik bo`laklı gruntlarning xossalari ularning tarkibida ko`pincha mavjud bo`ladigan qum, chang va gil zarrachalarining miqdoriga ham bog`liqdir. Bu zarrachalar miqdorining oshib borishi grunt suv o`tkazuvchanligining kamayishiga olib keladi.

**Qumli gruntlar** tarkibining asosiy qismini yirikligi 2...0,05 mm oraliqda bo`lgan qum zarrachalari tashkil etadi. Bu zarrachalarning shakli ko`pincha yumaloqroq bo`lib, ular boshlang`ich tog` jinslarining fizikaviy yemirilishidan hosil bo`lgan. Qumli gruntlarning tarkibida ko`pincha tosh, chang va gil zarrachalari ham mavjud bo`ladi. Changsimon zarrachalar aslida dastlabki tog` jinslarining yemirilish jarayonida qum bilan birga paydo bo`lganligi uchun ularning mineralogik tarkibi va boshqa xususiyatlari o`xshashdir. Gil zarrachalarining nisbiy miqdori qumli gruntlarda 3%

gacha bo`lishi mumkin.

Tarkibiga ko`ra qumli gruntlar quyidagi turlarga bo`linadi:

**Graviyli qum** (o`lchamlari 2 mm dan yirik zarrachalar massasi bo`yicha 25% dan ko`p bo`lsa;

**Yirik qum** (o`lchamlari 0,5 mm dan yirik zarrachalar massasi bo`yicha 50% dan ko`p bo`lsa);

**O`rta yiriklikdagi qum** (o`lchamlari 0,25 mm dan yirik zarrachalar massasi bo`yicha 75% va undan ko`p bo`lsa);

**Mayda zarrachali qum** (o`lchamlari 0,1 mm dan yirik zarrachalar massasi bo`yicha 75% va undan g`altakq bo`lsa);

**Changsimon qum** (o`lchamlari 0,1 mm dan yirik zarrachalar massasi bo`yicha 75% dan kam bo`lsa)

Qumli gruntlar plastiklik xususiyatiga ega emas, suv o`tkazuvchan, nisbatan bikr skeletga ega. Ular statik yuklar ta`sirida kamroq, dinamik ta`sirlarda esa yaxshiroq zichlanadi. Quruq holda qumlar sochiluvchan bo`ladi, namlik ta`sirida ularning g`ovakligi keskin o`zgarishi mumkin. Qum g`ovaklari bo`ylab suvning kapillyar ko`tarilishi 0,5 m balandlikkacha kuzatiladi.

Qatlami qalin tekis zichlangan qum ancha ishonchli zamin vazifasini o`taydi. Yuk ko`tarish qobiliyati bo`yicha qumli gruntlar yirik bo`lakli gruntulardan kuchsizroq, gilli gruntulardan kuchliroqdir. Qattiq zarrachalarining yiriklashib borishi bilan ularning yuk ko`tarish xususiyati ham ortib boradi. Suvga to`yingan mayda zarrachali qumlar tabiatda muvozanat holatda bo`lib, kovlab olinganda tezda oquvchan quyqaga aylanishi mumkin. Dinamik ta`sirlarda quyqalanish ayniqsa kuchliroq bo`ladi, chunki bunda nisbatan kichikroq g`ovaklarda ushlanib qolgan suv grunt bo`yicha tekis taqsimlanib, uning harakatlanuvchanligini oshiradi.

Umumiyl xususiyatlarga ega bo`lgan yirik bo`lakli va qumli gruntlar **sochiluvchan gruntu** turkumiga kiradi. Donalarining o`lchamlari turlicha bo`lgan bu gruntu qoya jinslaridek o`z shaklini saqlay olmaydi (siljituvcchi kuchlar ta`sirida o`z shaklini tezda yo`qotishi mumkin).

Tarkibida massasi bo`yicha 3% dan ko`proq gil zarrachalari bo`lgan va suv ta`sirida yopishqoq holatga keladigan gruntu gilli gruntu deyiladi. ularning tarkibida gildan tashqari chang, qum zarrachalari va har xil yiriklikdagi toshlar mavjud bo`lishi mumkin. Gilning miqdori qanchalik ko`p bo`lsa, ularning suv o`tkazuvchanligi kamayib, plastikligi va qovushqoqligi oshib boradi.

Ignasimon, yoysimon, plastinasimon shakldagi o`lchamlari (gidravlik diametri 0,005 mm dan kichik gil zarrachalari asosan tog` jinslarning kimyoviy va qisman biologik yemirilishi natijasida hosil bo`lgan.

Tarkibidagi gil zarrachalari miqdoriga ko`ra gilli gruntu quyidagi turlarga bo`linadi:

1. **Qumoq grunt** (gil zarrachalarining miqdori grunt massasi bo`yicha 3...10% ni tashkil etadi);
2. **Qumloq grunt**(gil zarrachalari 10...30% ni tashkil etadi);
3. **Gilli grunt** (gil zarrachalari 30% dan ko`p).

Grunt tarkibida gil zarrachalari qanchalik ko`p bo`lsa, suv ta`sirida ularning xossalari shunchalik o`zgaruvchan bo`ladi. Tarkibidagi suvning miqdoriga qarab, ular qattiq, plastik yoki oquvchan holatlarda bo`lishi mumkin.

Hosil bo`lish sharoiti, tarkibi, suv ta`siridagi holati va boshqa xususiyatlariga qarab, gilli gruntlar guruhida **muzlik davri gili (morena), tasmasimon gil, lyoss, sho`rlangan gilli grunt** va boshqalar bir-biridan farqlanadi. O`zbekistonda, ayniqsa uning janubiy hududlarida lyoss va lyossimon gruntlar ko`p uchraydi.

Tarkibiga ko`ra **lyoss** yoki **lyossimon** gruntlar qumoq tuproq, sog` tuproq yoki gil tuproq guruuhlariga kirishi mumkin. Ularning tarkibi deyarli bir jinsli bo`lib, 50...80 % massasini changsimon zarrachalar (0,005...0,05 mm) tashkil etadi. Lyosslar tarkibida shuningdek, gumus, ohak, gips va boshqa suvda oson eriydigan tuzlar ham mavjud bo`ladi.

Lyossli gruntlarning o`ziga xos tomonlaridan biri, ularning tuzilishida vertikal yo`nalishda joylashgan va ko`z ilg`aydigan yirik tutash g`ovaklarning mavjudligidir. G`ovaklarning joylashuvi suv sizishining asosan vertikal yo`nalishda sodir bo`lishiga sabab bo`ladi. Lyossli gruntning qattiq zarrachalari o`zaro kuchsiz bog`langanligi uchun, suv ta`sirida bog`lanish kuchlari keskin kamayib, katta miqdordagi cho`kish hodisasi ruy beradi. Shu sababli, lyosslar o`ta cho`kuvchan gruntlar turiga kiradi.

O`zbekiston sharoitida shuningdek **sho`rlangan gilli gruntlar** ham keng tarqalgan bo`lib, ularning tarkibi va xossalari odatdagи gruntlarnikidan birmuncha farq qiladi. Ularning tarkibida har xil suvda oson eruvchan tuzlar mavjud bo`ladi. Bunday gruntlar zarrachalarining zichligini aniqlashda inert suyuqliklardan (masalan, kerosindan) foydalaniladi. Ularning granulometrik tarkibini o`rganishda esa, grunt namunasini oldindan suv bilan yuvish, ya`ni tuzlarni grunt tarkibidan butunlay chiqazib tashlash lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жураев, С., & Беккамов, М. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ (ТРОСОВЫХ И МЕМБРАННЫХ) ПОКРЫТИЙ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 997-1002.
2. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих Покрытий В Пк Лири. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.
3. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОИЙ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ

АРХИТЕКТУРАСИ. О'ЗБЕКИСТОНДА ФАНЛАРАРО ИННОВАЦИЯЛАР  
ВА ИЛМИЙ ТАДДИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 2(16), 142-146.

4. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN GRUNTLARINING O'ZARO TA'SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.
5. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.
6. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 77-81.
7. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 197-206.
8. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(5), 73-76.
9. Mamatmurod ogli J. S. et al. QURILISH BOSH PLANI, MATERIAL VA KONSTRUKSIYALARНИ OMBORLARGA JOYLASHTIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 66-72.
10. Mamatmurod ogli J. S. et al. ASOS, PODEVORLAR VA ORAYOPMALARNI KUCHAYTIRISH VA ULARNING MONTAJ SAMARADORLIGINI OSHIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 54-59.

## FIBROBETON XOM-ASHYOLARINING KIMYOVIY TARKIBI VA XOSSALARI

*Boboqulov Temurbek Ro`zi o`g`li*  
*boboqulovtemurbek666@gmail.com*

### Annotatsiya

Zamonaviy qurilish amaliyoti Fibrobetonda mineral qo'shimchalaridan va mahalliy tolalardan keng foydalanishni o'z ichiga oladi. Mineral qo'shimchalar va mahalliy tolalar sifatida beton aralashmasi va betonning xususiyatlarini tubdan o'zgartirish uchun bir xil samarali, universal va ishlatish uchun qulay vosita yo'q. Monolit temir-beton konstruktsiyalarga ega turar-joy va jamoat binolari qurilishining jadal rivojlanishi tufayli tayyor betondan foydalanish hajmining doimiy o'sishi kuzatilmoqda shu sababli beton va Fibrobeton xususiyatlarini o'rghanish muhum hisoblanadi

**Kalit so‘zlar:** Fibrobeton, kon rudalari, basalt, xom-ashyo, tola zichligi, korroziya, erish temperaturasi, cho'zilishdagi mustahkamlik.

**Kirish: O'zbekistondagi basalt tolalarning xom-ashyo bazasi:** Basalt konlarining O'zbekistondagi soni bir nechta bo'lib, ulardan faqatgina Jizzax viloyati, Forish tumani Osmonsov QFYdagi kon rudalarigina sifatli va mustahkam basalt mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yaroqli hisoblanadi. Forish tumanida o'z faoliyatini olib borayotgan "Mega invest industrial" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi O'zbekiston-Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi yangi turdag'i qurilish material ishlab chiqarish bo'yicha nafaqat mamlakatimizda balki, Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Ushbu zavod yiliga 3000 tonna bazalt tolesi ishlab chiqarish quvvati ega. Bazalt tolasining 80% armatura ishlab chiqarishga yo'naltiriladi, qolgan 20% qurilish uchun zarur bo'lgan boshqa mahsulotlar barpo etishga sarflanadi.

Bazalt- qora va qo'ng'ir ba'zan to'q yashil rangda uchraydigan tabiiy tog' jinsi. Bazalt va boshqa tolalar asosida olinadigan fibrobeton eng zamonaviy va mustaxkam qurilish materiallar tarkibiga kiradi.

### *Bazalt mineralini kimyoviy tarkibi*

$\text{SiO}_2$	$\text{Al}_2\text{O}_3$	$\text{Fe}_2\text{O}_3$	$\text{CaO}$	$\text{MgO}$	$\text{Na}_2\text{O}$	$\text{K}_2\text{O}$	$\text{P}_2\text{O}_3$

**Basalt tolanning fizik xossalari**

	1450
Cho'zilish koeffitsiyent, (%)	2-4.5
Cho'zilishdagi mustahkamligi, (MPa)	3500

Bog'lovchi sifatida Portlandsement "OHANGARONSEMENT" AJ ning (SEM-1 42.5 N GOST-31108-2020) ishlatalgan. Quyidagi -jadvalda portlandsementning minerologik tarkibi keltirilgan.

**Portlandsementning minerologik tarkibi**

№					

Normal quyuqligi-28.5%

Ushlab qolish muddati: boshlanishi-70, oxiri-150min

**Siqilishga bo'lgan mustahkamlikni (28 kunlik natija)  
oshishi foizlarda:**

Nazorat sinov namunasi 28 kunlik siqilishdagi mustahkamligi 37,5 MPa ga teng bo'ldi

Bazalt-0.5%. Sinov namunasidan-13.3% yuqori ko'rsatkich berdi.

Bazalt-1%. Sinov namunasidan-18% yuqori ko'rsatkich berdi.

Bazalt-1.5%. Sinov namunasidan-20,5% yuqori ko'rsatkich berdi.

Bazalt-2%. Sinov namunasidan-26,2% yuqori ko'rsatkich berdi.

**Namunalarning egilishdagi mustahkamligi**

Balka namunalar (4x4x16 sm)	Egilishdagи mustahkamlik (MPa)					
	3 kunlik		7 kunlik		28 kunlik	
	egilish	sinqilish	egilish	sinqilish	egilish	sinqilish
Kontrolniy	1.5	27.2	4.2	30.1	5.3	36.3
Bazalt-0.5%	4.41	29.3	5.39	36.3	5.7	39.8
Bazalt-1%	4.8	30.6	5.78	39.5	6.4	42.3
Bazalt-1.5%	4.67	32.8	5.39	40.05	6.5	45.1
Bazalt-2%	4.3	33.8	6.37	41.2	7.2	48.2

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdumo'minov. O. R, and Z. Akhmedov. "Effect of complex additional and flying ash on cement properties." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.12 (2021): 654-658.
2. Kh, T. F., Bobakulov, A. A., Abdumuminov, O. R., & Ahmedov, Z. J. (2021). Features Of The Structure Formation Of A Filling Mixture Based On Industrial Waste. The American Journal of Engineering and Technology, 3(05), 150-155.
3. Abdumo'minov O.R.. "EFFICIENT USE OF LOCAL WASTE IN THE PRODUCTION OF BUILDING MATERIALS" International Scientific Research Journal (WoS). I2776-0979, Volume 3, Issue 8, Aug., 2022. 374-376
4. Abdumuminov.O.R. Sh.Raximov. Z. Axmedov. The Development of Compositions and Research of the Properties of Fine Concrete. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. November, Vol. 4 No. 9 (2021).
5. Abdumo'minov, Odina, and Ramazon Rajabov. "PROSPECTS FOR CONSTRUCTION MATERIALS PRODUCTION." International Bulletin of Engineering and Technology 3 (2023): 23-27.
6. Abdumo'minov, O. R. "METALLURGIYA SHLAKLARI ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH." E Conference Zone. 2022.
7. Abduhalimzoda, Abdurahimov Abdulkarim, and Abdumominov Odina Rashidovich. "THE EFFECT OF CHEMICAL ADDITIVES ON THE HARDENING OF PUTSOLAN PORTLAND CEMENT." American Journal of

- Pedagogical and Educational Research 13 (2023): 115-117.
- 8. Жураев, С., & Беккамов, М. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ (ТРОСОВЫХ И МЕМБРАННЫХ) ПОКРЫТИЙ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 997-1002.
  - 9. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих Покрытий В Пк Лири. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.
  - 10. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОЙЙ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 142-146.
  - 11. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN GRUNTLARINING O'ZARO TA'SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.
  - 12. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.

## KOMPOZITSIYA ASOSLARI

**Sharipov Baxodir Xolboyevich**

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti assistenti*

**Annotatsiya.** Me'moriy asarlardagi hajm va fazoviy muhit. Misollar. Hajmiy fazoviy muhitning turlari. Turlarga bo'linishining shartliligi. Asarni idrok qilishda tomoshabin hoiatining ahamiyati. Frontal kompozitsiya. "Frontal" iborasining ma'nosи. Frontal kompozitsiyadagi hajmlar gabaritining nisbatlari. Frontal kompozitsiyani idrok etish xususiyatlari.

**Kalit so`zlar:** Kompozitsiya, frontal, namozgohlar, siluet, Rim Panteoni, sobor.

Biror bir shakl fazoda joylashishiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. frontal; 2. hajmiy; 3. hajmiy-fazoviy.

Tomoshabin ham shakllami uch yo'sinda idrok etishi mumkin: 1) tomoshabin bir joyda turib shaklni ko'radi; 2) tomoshabin shaklning atrofida aylanib uning tashini ko'radi; 3) tomoshabin shaklning ichi sari harakat qilib uning ichini ko'radi.

Frontal kompozitsiyani tomoshabin aksari tarz tomonidan tomosha qiladi. Hajmiy kompozitsiyani tomoshabin atrofida aylanib ko'radi. Hajmiy - fazoviy kompozitsiya esa tomoshabin ichkariga kirib ko'rishi uchun mo'ljallanadi. Har bir kompozitsiya turi o'zining tuzilishi, strukturasi bo'yicha tomoshabinga o'zgacha taassurot beradi. Kompozitsiya turlarini o'rganish bo'lg'usi arxitektorlar uchun juda muhim. Hajmiy-fazoviy shaklning yechimini hal qilishda me'moriy kompozitsyaning ahamiyati katta.

1. Frontal kompozitsiya. Frontal kompozitsyaning xarakterli belgisi shundan iboratki, undagi unsurlar ikkita: gorizontal hamda vertikal koordinatlari bo'yicha bog'lanadi. Frontal kompozitsiya bir necha xillaiga bo'linadi. Yuzasi bo'rtib chiqqan sathdan tashkil topishi mumkin (Reymsdagi sobor). Sath o'rtasi ichkariga kirgan shaklda ham bo'lishi mumkin (Moskvadagi Markaziy ittifoq binosi, arx. Korbyuzye). Aksari frontal kompozitsiyali binoning tarzi maydonga yoki ko'chaga qaratiladi. Namozgohlar arxitekturasi frontal kompozitsyaning yorqin namunasidir. Masalan, Toshkent namozgohi (Hazrati I mom majmuasi), Buxoro namozgohi. Buxoro namozgohining dastlabki XI asrdagi holati ham, XVI asrdagi holati ham frontal kompozitsiyani beradi. Oddiy frontal kompozitsiyali bino ko'proq to 'g'ri to'rburchaklardan tashkil topadi. Bunga misol qilib Voskresonnada (Fransiyada) arx. Korbyuzye qurgan villa tarzini keltirish mumkin. Frontal kompozitsiyani tuzish qator shartlarga bog'liqki, ular frontal kompozitsyaning ta'sirchanligini ta'minlaydi:

- frontallik uchun yuzaning bo'yi eniga nisbatan nyuans munosabatda bo'lishi;
- frontal yuzalar kolproq to'g'ri to'rburchakli siluetga ega boliishi;
- frontal yuzaning qisimlarga bo`linishlari;

- frontal yuza vertikal, gorizontal chiziqlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Egri chiziqli bo'linishlar frontallikni buzadi. Frontal kompozitsiyada uning elementlari bir yuzada joylashishi yoki ko'zga uncha tashlanmaydigan relyef hosil qilishi mumkin. Agar elementlar ichkariga ko'proq kirib ketsa, frontallik buziladi. Frontallikni saqlash shartlaridan biri elem entlar yuzasidagi rang, faktura, yorug'-soya, relyef kabi sifatlarning muvozanatda bo`lishidir. Biror sifatning keskin qo'llanilishi ham frontallikni buzadi.

2.Hajmiy kompozitsiya. Hajmiy kompozitsiyada qismlar uch koordinata bo'yicha taqsimlanadi. Hajmiy kompozitsiya bir butun, yopiq yuzali hajmdan iborat bo'lib, u tomoshabning o'z atrofida, har tomondan aylanishiga imkon beradi. Ba'zi hollarda hajmni atrof-muhitga bog`lash maqsadida uni 2 yoki 3 tarafdan ko'rishga mo`ljallash ham mumkin. Rim Panteonida kompozitsiya yaqqol markaziy xarakterga ega. Asosiy kirish qismi maydonga qaratilgan, uning asosiy silindr qismi gumbaz bilan yopilgan. Natijada ta'sirchan hajm vujudga kelgan. Hajmiylik sharti. Hajmiylikni idrok etishda bir qator shartlar kompozitsiyaning ta'sirchanligini oshiradi. Hajmiylik uchun uch koordinata bo'ylab olingan o'lchamlarning tengligi yoki tenglikka yaqinligi xarakterlidir; kub, balandligi diametriga yaqin bo'lgan silindr kabi shakllar hajmiy kompozitsiyani tashkil qiladi; balandligi qolgan ikki o'lchamiga nisbatan ajralib turgan shaklda ham hajmiylik ta'minlanadi; bu alohida turuvchi ustun, minorasimon inshootlardir. Hajmiy shakl hajm sifatida idrok etilsagina hajmiy kompozitsiya vujudga keladi; bir tomondan idrok etilgan kub frontal shaklday tugallanadi; ko'p qirrali prizmani tomoshabin bir nuqtadan idrok etsa ham hajmiylik namoyon bo'ladi. Hajmiy kompozitsiyada shaklning tomoshabinga nisbatan joylashishi nihoyatda muhimdir. Agar shakl perpendikular tekislilar bilan chegaralangan bo'lsa, tomoshabin uning faqat bir tomonini ko'rsa, tomoshabin uni hajmiy shakl deb qabul qilmaydi. Shaklni aylantirishjarayonida kokruvchi birvaqtning o'zida uning 2 tomonini va u hosil qilgan burchakni ko'rsa, shakl hajmi to'laroq namoyon bo'ladi. Gorizont balandligi shaklning idrok etilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'ruvchi bilan shakl orasidagi masofa kattalashsa, shakl chegaralari (silueti) juda kam o'zgaradi, hajm kuchsizroq ifodalanadi. Ko'ruvchi bilan shakl orasidagi nmsofa yaqinlashtirilsa, shakl chegaralari keskinroq farqlanadi; shakl yaqqolroq ifodalanadi. Shakl ko'ruvchiga nisbatan normal ko'rinishda ( $30^{\circ}$  da) bo'lsa, shakl to`liq ko'rindi; shakl ko'ruvchiga juda yaqin bo'lsa, ko'rinish deformasiyalanadi, to'g'ri burchakli hajm parallelepiped sifatida qabul qilinmaydi. Hajmning ifodasi uning yoritilishiga ham bog'liq. Agar kubning ikki ko'ringan tomoni bir xil yoritilgan bois, kub qirrasi aniq ko'rindiydi va shakl tekislik xarakteriga ega bo'lib qoladi. Agar kubning ikki tomoni ikki xil yoritilsa, yorug' va soya chegarasida hosil bo'lgan qirra shaklga aniqlik beradi, bunday holatda soya va yorug'likning solishtirma darajasi o'z me'yoriy chegarasiga ega bo'ladi. Soya va yorug'lik orasidagi farq juda kuchli bo'lsa, tomonlar orasidagi bog'liqlik yo'qoladi; bu

o‘z navbatida hajm shaklini o`zgartirib ko‘rsatadi. Shakllarning (oddiylarining ham, murakkablarining ham) yuqoridagi hamma shartlami hisobga olish me’morga hajmiy kompozitsiyalarni tuzishda, hajm bo‘laklarini o ‘zaro bog`lashda, ularni idrok etishda, qulay joylashtirishda yordam beradi. Zikr etib o ‘tilgan shartlardan tashqari shaklning hajmiy aniqligi uning yuzasi va massasining qismlarga ajratilishi xarakteriga ham bog`liq. Piramida shaklidagi hajmlaming zinapoya usulida qismlanishi uning massasini bildiradi. Ko‘rvuchi bir vaqtning o‘zida bir-biriga nisbatan perpendikular joylashgan 2 yoki 3 ta portalni ko‘radi. Hajmni yakunlovchi egri chiziqli shakl binoning umumiy hajmiy ko‘rinishini kuchaytiradi. Yuqorida ko‘rsatilgan misollarda asosiy diqqat hajmni aniqlovchi sifatlarga qaratilgan. Arxitektura qurilmalarida asosiy belgilardan tashqari qurilmaning hajmiy shaklini ko‘rsatuvchi yana bir qator belgilar bor: rang, faktura va boshqalar. Hajmiy kompozitsiyada elementlaming o‘zaro bog‘lanishlari frontal kompozitsiyadagi tutashtirish usuilariga o‘xshashdir. Tutashtirish usullari hajmiylik shartlariga bo‘ysunishi kerak. Aksari hajmiy kompozitsiyada asosiy - negiz hajmga boshqa, maydaroq hajmlar biriktiriladi. Vichensdagi Rotonda villasida (arx. Palladio) negiz hajmga (markaziy zalga) to‘rt tomondan yondoshgan portallar (peshtoqlar) asosiy shakl ahamiyatining kattaligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

3. Hajmiy-fazoviy kompozitsiya. Hajmiy-fazoviy kompozitsiyada yuzalar, hajmlar hamda ulaming birikmalari o ‘rtasidagi fazoviy muhitni tashkil etadi. Kompozitsiyaning bu turi tomoshabin ichkariga kirib fazoviy muhitni ko‘rishiga moMjallanadi. Bunga misol qilib Rimdagagi Petrsoborini keltirishimiz mumkin. Ikki tomondagi ustunlar qatori oralig’ida soboming asosiy hajmi joylashgan. Shunday qilib soboiga olib boruvchi fazoviy muhit ustunlar qatori qurshovi orqali hal qilingan. Sobor oldidagi fazoviy muhit ichki fazoviy muhitni (sobor ichkarisini) tomoshabin tomonidan idrok etilishiga tayyorlaydi. Hajmiy-fazoviy kompozitsiya turlari bo'yicha klauzura va vazifalar Klauzura va vazifalar talabaning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga, inshoot, majmualaming hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarini biror turga ajratish nisbiy ekanligini tushuntirishga qaratilgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uralov A.S, Adilova L.A.“Landshaft arxitekturasi”,295-bet.2014.
2. Isamuhammedova D.U, Axmedov M.K, Talipov M.A.“Shaxarsozlik”,2019.
3. ЭБ Эшқуватов, БХ Шарипов “[Аэродромларни лойихалаш, қуриш ва эксплуатация қилиш](#)” "Innovatsiya-Ziyo" 1, 432 бет. 2023.
4. Шарипов Б.Х. (2020). Из истории древнего градостроительства и архитектуры средней азии. Экономика и социум, (10 (77)), 915-919.
5. Tulkinovich, A. E., & Kholboevich, S. B. (2021). In the network of roads application of the intelligent transport system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 415-418. [Publisher Site](#) | [Google](#)

Scholar

6. Жураев, С., & Беккамов, М. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ (ТРОСОВЫХ И МЕМБРАННЫХ) ПОКРЫТИЙ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 997-1002.
7. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих Покрытий В Пк Лири. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.
8. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОЙЙ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 142-146.
9. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN GRUNTLARINING O'ZARO TA'SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.
10. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.
11. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 77-81.
12. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 197-206.
13. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(5), 73-76.
14. Mamatmurod ogli J. S. et al. QURILISH BOSH PLANI, MATERIAL VA KONSTRUKSIYALARNI OMBORLARGA JOYLASHTIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 66-72.
15. Mamatmurod ogli J. S. et al. ASOS, PODEVORLAR VA ORAYOPMALARNI KUCHAYTIRISH VA ULARNING MONTAJ SAMARADORLIGINI OSHIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 54-59.

UDK 628.171.034.2

PHYSICAL CHEMICAL ANALYSIS OF THE WASTEWATER  
COMPOSITION OF SHEROBAD CEMENT PLANT

*Abilov Elyor Ermamatovich*

*Teaching assistant. Republic of Uzbekistan. Termiz city.*

*Termez State University of Engineering and Agrotechnology*

*Email address: elyor.abilov.90@mail.ru*

*Phone: +99899-674-05-93.*

**Annotation:** Microelements, heavy metals and light in the wastewater of Sherabad Cement Plant were determined by spectrophotometric, inversion voltammetric methods. It was found that the total hardness of the water is slightly high, and the amounts of sulfates, chlorides, water loads, nitrates and dry residue are high.

**Key words :** *Surface waters, spectrophotometric method, sulfates, chlorides, water environment, total hardness.*

**Enter.** A number of chemical elements, potassium, iron, fluorine and other elements, as well as water and air, are involved in the natural cycle of substances in nature.

We all know that water is called life. Indeed, life without water is unimaginable. Water is one of the wealth factors of our beautiful nature, biosphere, which is necessary for human, animal, plant world, in short, the whole being. It is a part of any living organism, actively participates in the living process of the organism, important biochemical processes, it improves heat exchange, dissolves various substances, breaks salts and other substances into ions, creates a vital environment in the organism.

In Central Asia, more than 80 percent of water is used for growing agricultural products. A complex situation related to clean water can lead to food shortages in the region. Clean drinking water is at the top of the list of problems that plague the population of most districts and villages, especially those living in the most remote areas. Today, the issue of delivering clean drinking water to remote mountainous regions of Surkhan is one of the urgent problems.

**The problem. Analysis. Research.** In their work, the authors believe that the use of meters for the consumption of hot and cold water encourages the consumer to control water consumption and reduces costs by 30-40% compared to paying bills according to established norms.

In this research work, it was mentioned that the amount of iron in water is one of its main sources for plants and people, and monitoring the content of iron in surface and tap water is considered an urgent task from year to year. The research objects were water samples taken from the river and Enisei near Krasnoyarsk, as well as iron ions in tap water taken from taps of three different districts of Krasnoyarsk were determined by spectrophotometric method.

In these research works, the main stages of production are described and the main directions of ecological modernization of cement production are listed. According to the authors, reducing the amount of cement dust, creating a closed water supply system

that reduces the amount of pollutants, and preventing the release of dust and other pollutants into the atmosphere.

In these works, it was mentioned that the purpose of conducting qualitative and quantitative assessment monitoring of the harmful content of wastewater is not only to create measures for their treatment, but also to study the negative anthropogenic impact on the hydrosphere and ecosystem. Over the next 150 years, surface and underground water pollution has significantly worsened, and it is one of the urgent tasks to control wastewater with new ideas and directions, to ensure that its composition meets the requirements of standard norms.

In recent decades, the consistent development of ecological research is related to the urgent needs of mankind to use the Earth's biological resources, and due to the development of cities, the growth of industry and agriculture, in some cases, water resources have become deplorable. At the same time, environmental assessment of the current and future state of reservoirs and watercourses, which are subjected to more and more intensive exploitation and pollution, and preservation of the natural state of water remains one of the urgent problems.

At present, it should be noted that the level of ecological culture of a person is low, and this does not allow to understand in advance what he is doing. But he is living in the time of ecological crisis and he understands that the main task of every person is to preserve nature in its own way. Everyone should follow the basic principle of constructive ecology - be ready to do anything to improve the environment. Thus, environmental monitoring and biotesting are one of the widely used methods for assessing the quality of natural waters.

According to the scientist, reservoirs are only places where water accumulates, and they can be flowing or non-flowing. There are temporary reservoirs (ponds) and permanent ones that have been used for many years. Ecosystems of water bodies are central, and flowing waters are called streams, which form managed ecosystems.

According to the authors, many professional ecologists are needed to regularly monitor the ecological status of many water bodies, but even the highly developed countries of the West are not able to do this. The contribution of educational activities to the study of the ecological condition of water bodies in collecting information about the ecological condition of regional water bodies, water protection zones helped to improve the ecological condition [1].

A number of chemical elements, potassium, iron, fluorine and other elements, as well as water and air, are involved in the natural cycle of substances in nature.

The article presents the results of experiments and laboratory studies on determining the sorption concentration of heavy metals: zinc (II), cadmium (II), lead (II) and chromium (III) KFG-1 and TFG-1 ions. exchangers from aqueous media. Optimum conditions for concentration and subsequent determination of heavy metals at the level of one -tenth of MPC are proposed by spectrophotometry . Comparative description of sorption properties of TFG-1 and KFG-1 ion exchangers with respect to cadmium (II), zinc (II), zinc (II) and chromium (III) ions in the pH range 1-12 . done; done [2].

In this study, the highly efficient ion exchanger polyfunctional DMT+FK, DMK+FK, DMT+AF and DMK+AF ionites synthesized in static and dynamic

conditions from individual and mixed solutions of Cu (II), Ni (II), Zn (II), Ag The sorption capacity for (I) ions was determined. Based on the obtained results, the ionites synthesized were used for the treatment of industrial wastewater and for the separation of non-ferrous and heavy metal ions in hydrometallurgy.

Cement is obtained by grinding clinker and gypsum for a long time. Clinker is a raw material consisting of a mixture of limestone and earth with a certain composition, which ensures the predominance of calcium silicate, and is a product formed by uniform firing. Three technological processes are used in the production of cement: wet, dry and mixed method.

One of the most used methods is the wet method, which helps the clinker to form evenly. Therefore, this method is used in production due to the high quality level, although the costs are high. The Sherabad cement plant also uses the wet method, and the raw materials from the water ponds are homogenized and transferred to the next process. [3].

Water supply systems. Industrial enterprises use water for the following purposes:

- For the needs of production processes;
- For consumer needs;
- For the needs of the fire safety system;

Also, depending on the technology used by the industrial enterprise, their amount may be in different proportions. The main water source of Sherabad Cement Plant is underground water. The I-stage pumping station is also integrated with pumps that draw water from the depths of the wells. In addition, there is a problem of reliable operation of high-capacity (100-300 m<sup>3</sup>/h) underground water extraction pumps typical of large enterprises. Increasing the reliability of water sources can be done by connecting existing water wells to networks. It is necessary to take into account the seasonal nature of existing water wells and their location. The deepest water supply wells are 203 meters [4]. In deep industrial artesian wells, iron, calcium, magnesium, fluorine and chlorides are almost always found to be significantly abnormal in the water. In the cooling system of the main production equipment, the temperature is moderate (+46°C), and the water supply system of the small thermal power plant is different from the above system. In this case, the transition of water to the vapor state, condensation processes and when it arrives at the cooling device (Ventilation cooler) is in most cases high (+65°C level) [5]. Water is brought to the main pumping station through the I and II stage pumping stations and passes through various stages of water preparation based on existing requirements and is collected in special water collection basins and delivered to consumers.

The water coming from the I-stage pumping station goes through the flotation and coagulation processes and the first special clarifier. At the next stage, the wastewater is subjected to additional mechanical and chemical treatment and collected in separate water collection reservoirs with a volume of 500 m<sup>3</sup> each. Purified and cooled water is stored in a fire water storage tank, excess water is used for landscaping and reducing dust particles released into the environment. One of the urgent tasks is to control the water consumption of the Sherabad cement plant, as well as the chemical composition of the water based on the automated central system. The composition of waste water of enterprises must comply with the requirements of the regulatory document

SanQvaM No. 0318-15, SanQvaM No. 0200-06 (Table №1, Table №2).

Table №1

**Classification of water bodies according to the level of pollution**

No	Component names	Unit of measure	Fixed concentration
1.	Mineralization: dry residual	mg/ dm <sup>3</sup>	Not more than 1000 Chlorides - 350 Sulfates - 500
2.	Smell, taste	score	2-4
3.	KBE-biological need for oxygen	mgO <sub>2</sub> / dm <sup>3</sup>	6.0-10.0
4.	KKE-chemical demand for oxygen	mgO <sub>2</sub> / dm <sup>3</sup>	15.0-40.0
5.	Dissolved oxygen	mgO <sub>2</sub> / dm <sup>3</sup>	4.0 is no less
6.	rN		6.5-8.5
7.	Suspensions	mg/dm <sup>3</sup>	0.75

Table №2

**Above ground water quality level according to chemical indicators**

Name of pointers	Water quality indicator by classes			
	Unit of measure	1	2	3
Blurry	mg/l, not much	20	1500	10000
Color	degree, not much	30	50	100
The smell	score, not much	2	3	4
Hydrogen indicator	(pH)	6.5-8.5	6.5-8.5	6.5-8.5
Iron	mg/l, not much	0.3	1.0	3.0
Manganese	mg/l, not much	0.1	1.0	2.0
Fluoride	mg/l, not much	0.7	0.7	0.7
Oxidability	mgO <sub>2</sub> /l, not much	7.0	15.0	20.0

Technical water is mainly used for the purpose of cooling the crusher device that grinds raw materials, sprinkling water on the dust released during the process, speeding up the mixing processes of semi-finished products, cooling the lower parts of the rotating boiler room and mill base and other types of devices. Technical water consumption for the main production technology of the plant is an average of 144 m<sup>3</sup> per day. The heat generated during the cement production process from the 8 MW small thermal power plant is captured without being released into the atmosphere and used to generate steam in the existing two-stage boilers. The water preparation and cooling system of the heat station works autonomously.

It has a special water treatment complex, a 100 m<sup>3</sup>/h water chiller and an open water reservoir with a volume of 4000 m<sup>3</sup>, with an average water consumption of 475 m<sup>3</sup> per day for a small thermal power plant.

Table №3

**Sherabad cement plant from the waters use case pointer**

No	Water reservoirs	Water capacity, m <sup>3</sup>	Objects to which water is diverted	Average water consumption, m <sup>3</sup> /day
1.	Fire pit	500	Fire protection system	1.25
2.	A reservoir intended for household use	500	Landscaping areas, car wash	233.8
3.	A reservoir for technical water	500	needs of production workshops	144
4.	Small thermal power plant	500	Power plant water cooling system	475


We can represent the water supply basins of the Sherabad cement plant and their users according to Table №3.

№1, №2, №3, №4, №5 – Wells from wells to the main pumping station;

Pipes from wells to the main pumping station;

Water pipes in the cooling system

A water pipeline to a small thermal power station



**Figure 2. Water sources. Wells №1, №2, №3, №4, №5. NC-1 main water preparation, storage and transfer station. Grinding shop S-1. S-2 annealing workshop. S-3 raw material shop. MIES small thermal power plant.**

The total hardness ranged from 8.8 mg-eq/l to 10 mg-eq/l when tested water samples were examined. The amount of sulfates ranged from 136.8 mg/l to 139.2 mg/l. The dry residue ranged from 480 mg/l to 673 mg/l. The amount of chlorides ranged from 2.0 mg/l to 3.6 mg/l. The pH of all tested wastewater samples was found to be 6 tang. Nitrates were found to range from 1.6 mg/l to 2.0 mg/l (Table №4).

Water samples were collected from the following sampling points:

- №1. Water sample taken from a water well (Well No. 5) flowing from the area of Vandob village.
- №2. Water sample taken from the main water well (Well No. 1).
- №3. Water sample taken from the South Water Well (Well No. 4).
- №4. A sample from a technical water storage pond.
- №5. A sample from a fire pit.

Table №4

### Composition of water samples taken from wells and reservoirs

No	Indicator - S	UzDSt 950: 2011	Tested water samples				
			#1 mg/l	#2 mg/l	#3 mg/ l	#4 mg/ l	#5 mg/l
1	General hardness	7(10) mg-eq/l	10	8.8	9.0	10	10
2	SO <sub>4</sub>	400 (500)	136,8	139 .2	139 .2	136 .8	139. 2
3	Dry residue	1000 (1500)	673	480	485	669	665
4	Cu	1	-	-	-	-	-
5	Ms	3	-	-	-	-	-
6	Pb	0.0005	-	-	-	-	-
7	Mr	0.1	-	-	-	-	-
8	Cl	250 (350)	2.1	2.4	3.6	2	2.4
9	pH	6-9	6.0	6.0	6.0	6.0	6.0
10	NO <sub>2</sub>	3	-	-	-	-	-
11	NO <sub>3</sub>	45	1.6	1.9	2.0	1.6	1.7
yilga mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining soliq va bojxona tizimlarini isloh qilish doirasida sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash uchun individual soliq va bojxona imtiyozlari berish amaliyotini maksimal darajada cheklash, imtiyozlar va preferensiyalar berish, ularning iqtisodiy jihatdan asosliligi hamda samaradorligini baholash tizimini, shuningdek, ulardan foydalanishni monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘lida imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish tartibini belgilanishi imtiyozlarni optimallashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Qaror doirasida soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalar qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjalari asosida belgilanishi ko‘rsatib o‘tildi va vaqtinchalik imtiyozlar muddati 3 yil etib belgilandi. Mamlakatimizda bojxona ma’muriyatichilagini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish yo‘lida Bojxona to‘lovleri boshqarmasi Daromadlar va bojxona statistikasi etib qayta tashkil etildi va unga bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar to‘g‘ri qo‘llanilganligi va tovarlarning bojxona qiymati to‘g‘ri aniqlanganligini tekshirish vazifasi yuklatildi. Yaqin yillarda mamlakatimizda tashqi savdoni erkinlashtirish yo‘lidagi islohotlar bojxona to‘lovlarining oshishi bilan bir qatorda bojxona to‘lovlaridan imtiyozlarning bir xilda oshishiga ta’sir etmoqda. 2011-2021-yillar davomida bojxona organlari tomonidan davlat byudjetiga undirilgan bojxona to‘lovleri va TIF qatnashchilariga bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlarni quyida ko‘rshimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida berilgan imtiyozlar va davlat byudjetiga o‘tkazilgan mablag‘lar o‘rtasidagi tafovut yaqin yillarga qadar kamida 2 barobarni tashkil etib kelgan. Bu ko‘rsatkichlarning har ikkalasi ham 2017-yilda keskin oshganini ko‘rshimiz mumkin. Ammo ayrim soliq va bojxona imtiyozlarining bekor qilinishi sababli imtiyozlar salmog‘ida kamayganligi kuzatildi. 2021-yilda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bojxona to‘lovlaridan berilayotgan imtiyozlar 38,15 trln so‘mni, davlat byudjetiga o‘tkazilgan mablag‘lar hajmi 33,23 trln so‘mni tashkil qildi va bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlar davlat byudjetiga o‘tkazilgan mablag‘lar hajmidan 1,1-martaga ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. 2020-yilda bu ko‘rsatkich 1,6 barobarga, 2011-yilda esa 2,2 barobarga ko‘pligini ko‘rshimiz mumkin. Bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlarni oshishiga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, mahalliyashtirish dasturlari va davlatimiz bilan erkin savdo zonasini tashkil etgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga berilgan preferensiyalarning ko‘payishi sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlaridan qo‘llanilgan imtiyozlar tarkibida import bojxona boji — 50,7 foizni, QQS — 49,2 foizni, aksiz solig‘i 0,02 foizni va bojxona yig‘imlaridan berilgan imtiyozlar esa 0,06 foizni tashkil etgan.

Bojxona imtiyozlarini optimallashtirish yo‘lida islohotlarga to’xtaladigan bo’lsak bunga texnologik jihozlar nisbatan amalga oshirilgan ishlar misol bo’la oladi.

2013-yilda ayrim idora va tashkilotlar qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda import bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan texnologik jihozlar ro'yhati tasdiqlangan edi. Ammo bu ro'yhatdan o'rinn olgan TIF TN kodlar tovar pozitsiyasi va subpozitsiyada keltirilgan edi. Bu esa o'z navbatida bir tovar pozitsiyasida ko'plab tovarlar bo'lism ehtimolini hisobga oladigan bo'lsak imtiyozlarni qo'llanish yo'nalishida og'ish ehtimolligi yuqoriligi saqlanib qolayotgandi. 2021-yilga kelib esa bu ro'yxat Vazirlar Mahkamasi qarori asosida qayta tasdiqlanib har bir tovar nomi va podsubpozitsiyagacha tasniflangan holda keltirib o'tildi. Amalga oshirgan ishlarimiz xususida so'z yuritar ekanmiz, yechimini kutayotgan muammolar haqida so'z yuritishimiz lozim. Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunga binoan taqdim etiladigan imtiyozlar shu jumlasidandir. Qonun doirasida maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga 4 ta imtiyoz taqdim etilishi ko'zda tutilgan. Lekin maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi bo'lмаган har qanday tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi ushbu imtiyozlarning deyarli 75%dan foydalanish uchun hech qanday to'siqlarga duch kelmaydi, qolgan qismini ham qo'llash uchun esa ehtiyoj deyarli tug'ilmaydi. Mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash muhim vazifalar sirasiga kirar ekan, imtiyozlar masalasini ko'rib chiqish dolzarbligini yo'qotmaydi.

2021-yil davomida bojxona organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga 38,2 trln so'm bojxona to'lovlaridan imtiyozlar qo'llanilgan. Bojxona to'lovlaridan imtiyozlarda salmog'i yuqori bo'lgan tovarlarga transport va uning ehtiyoj qismlari 38%(12 trln so'm), texnologik asbob-uskunalar 15%(4,9 trln so'm), farmatsevtika mahsulotlari 8%(2,6 trln so'm), oziq-ovqat mahsulotlari 8%(2,5 trln so'm) elekrotexnika mahsulotlari 8%(2,4 trln so'm), metall va metall buyumlar 5%(1,7 trln so'm) kabilar kiradi.

Bojxona to'lovlarini tahlilini amalga oshirar ekanmiz bunda tovarlarga nisbatan belgilangan bojxona bojining stavkalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bojxona to'lovlar tushumi hajmining oshishi tashqi savdo aylanmasining oshganligi bilan bog'liq bo'lib katta qismini yirik sanoat korxonalariga to'g'ri keladi. To'lovlardan berilgan imtiyozlarning ham katta qismi sanoat korxonalarini uchun manfaatli hisoblanadi. Ammo birlamchi iste'mol mahsulotlari uchun berilgan imtiyozlar barcha qatlAMDagi aholining daromadlarining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu turdag'i tovarlar uchun bojxona bojining stavkalari belgilanishi bevosita bozor narxlariga ta'sir etadi. Mamlakatimizda ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish narx-navolarni asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Aholini ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralar to'g'risida"gi 689-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida o'simlik yog'i, kungaboqar yog'i va zig'ir urug'i, soya danagini olib kirishda qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindi. "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga aholini asosiy turdag'i oziq-ovqat

mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risida" 725-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida go'sht, tirik hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlar, kartoshka va muzlatilgan baliqlardan realizatsiya qilish bo'yicha , shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish qo'shilgan qiymat solig'idan va "Aholini asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari kafolatli ta'minlash va ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 627-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori asosida bojxona bojidan ozod qilindi. Ushbu islohotlar o'z natijasini qay darajada ko'rsatdi yoki bozordagi tovarlar narxi arzonlashdimi?. Ushbu islohotlar samarasini quyidagi ma'lumotlar orqali tahlil qilamiz. Quyidagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, mamlakatimizga bu turdag'i tovarlar oqimi keskin oshgani kuzatilgan. Banan importi qariyb 2 barobarga oshgan bo'lsa, kartoshka importi 2 barobardan ko'proqni tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda Parranda go'shti importi 1,5 barobarga, yirik shoxli qoramol go'shti importi 1,4 barobarga, baliq va dengiz mahsulotlari importi 1,2 barobarga ortGANI kuzatilgan.

Bu aholi farovonligiga qanday ta'sir etganini aniqlashda biz uchun narxlar dinamikasini tahlil qilish yordam beradi. Yuqoridagi 5 turdag'i mahsulotda 4 tasi mamlakatimiz hududida yetishtiriladi yuqoridagi narxlarni yuzaga kelishida ichki omillar sifatida aynan shu sohaga qaratilgan imtiyoz yoki subsidiyalar kabi faktorlar ehtimoli yuqori shu sababdan banan mahsulotiga nisbatan tahlilni amalga oshirish berilgan imtiyoz ahamiyatini aniqlashda yordam beradi. 2021-yil oktyabr holatida 1kilogram banan uchun o'zbekistonliklar 1.68 AQSH dollari to'lashgan bo'lsa, 2022-yil yanvar holatida 1 kilogramm banan uchun o'rtacha 1.40 AQSH dollari to'lashmoqda. Juhon bozoridagi narx 1.52 AQSH dollari ekanligi imtiyoz narxga bevosita ta'sir etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa sitrus mevalarga nisbatan ichki talabni qondirishda xizmat qilmoqda. Import bojxona bojining nol stavkaga vaqtinchalik tushirilishi orqali importni erkinlashtirish import xarajatlarini kamayishi, ichki bozor narxlarini pasayishiga, aholi farovonligiga ta'sir etib iste'molchilarni yanada boyroq bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ammo bu ko'rsatkichlar o'simlik yog'i mahsulotlarida teskari holat kuzatilgan. Rossiya Federatsiyasi tomonidan 70% eksport bojxona bojlari belgilanishi, Qozog'iston tomonidan eksportga kvotalar belgilanishi import hajmining kamayishiga ta'sir etdi. Aynan shu turdag'i tovarlarga nisbatan mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish va eksport bojxona bojlari belgilash kabi choralar qo'llanildi. Ammo ayrim jihatlar ya'ni ma'muriy yo'llar bilan narxlarni jilovlash o'zining teskari samara berdi va narx o'sishda davom etdi. Bu kabi choralar joriy etilishidan avval 2021-yilning aprel oyida kungaboqar yog'i uchun mahsulotlar narxi o'rtacha 19328 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar oyi holatiga 19431 so'mni tashkil etgan. Imtiyozlarning muddati 2022-yil 30-aprelgacha belgilanganligi importdag'i hajmi va ulushi kamayib borayotgan mahsulotning to'lovlar tiklangach kamida shuncha foizga oshishi kuzatilishi tayin. Qo'shilgan qiymat

solig‘idan ozod etish ma’lum vaqt davomida narx o’sish tendensiyalarini sekinlashuviga xizmat qildi.

Davlatlar o‘rtasidagi xalqaro savdo muntazam o‘sib borar ekan mamlakatimiz uchun tashqi savdo munosabatlarining ahamiyati ham oshib boradi. Mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida yetarli darajada integratsiyalashuvga erishmagani xalqaro savdoda boshqa davlatlarning diskriminatsion siyosat qoidalariga rioya etishni taqozo etib kelmoqda. Bu bevosita savdoni cheklashga ta’sir etar ekan bojxona to‘lovlarini ham chetlab o‘tmaydi. Iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish bizning ustuvor vazifalarimizdan biri ekan biz uchun integratsion jarayonlarning ahamiyati oshib boraveradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish dunyo amaliyotida integratsiyalashish uchun eng muqobil yechim hisoblanadi. Bizning oldimizda ichki bozorni himoya qilish, jahon bozoriga raqobatbardosh tovarlar bilan kirib borish va ularni o‘rnini mustahkamlash yo‘lidagi maqsadlarga dunyo tajribasi tan olgan vosita va qoidalar asosida chora-tadbirlarni ishlab chiqish amaliyotga tatbiq etish orqali erishish mumkin. Har qanday integratsion jarayonlarga kirishar ekanmiz biz avvalo uning oqibatlari va natijalarini hisobga olishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanish amalga oshirilgan ishlardagi xato va kamchiliklarni takrorlamaslik eng optimal natijaga erishish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi(YeOII). YeOIIning a’zo davlatlari o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta’minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiyligi iqtisodiy hudud shakllantirilgan. YeOII Shartnomasi, YeOII doirasidagi xalqaro kelishuvlar va Oliy Kengash qarorlarining bajarilishi va monitoringi a’zo davlatlar hukumat rahbarlaridan iborat Hukumatlararo Kengash tomonidan ta’milanadi. YeOII Sudi – doimiy faoliyat yurituvchi sud organi hisoblanib, uning shtab-kvartirasi Minsk shahrida joylashgan. Yevrosiyo Iqtisodiy Komissiyasi iqtisodiy ittifoqning 170 tadan iborat funksiyalarini bajaradi: Jumladan, bojxona-tarif va notarif tartibga solish; bojxona ma’murchiligini tartibga solish; sanitariya, veterinariya va fitosanitariya chora-tadbirlarini tartibga solish; uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlarini o‘rnativishni tartibga solish; makroiqtisodiy va raqobat siyosatini belgilash; sanoat va qishloq xo‘jaligiga subsidiyalar, tabiiy monopoliyalar, davlat xaridlari, transport va tashishga oid chora – tadbirlarni tartibga solish va boshqalar. Savdoni rivojlantirish yo‘nalishida Ittifoq Serbiya, Vyetnam, Singapur kabi davlatlar bilan erkin savdo zonasi rejimi bo‘yicha bitimlar imzolagan. Xitoy, Hindiston, Misr, Isroil kabi mamlakatlar hanuzgacha muzokaralar olib borishmoqda. Hozirgi kunda Moldaviya, O‘zbekiston, Kuba davlatlari kuzatuvchi maqomiga ega bo‘lgan.

YeOII ni tashkil etuvchi beshta a’zo davlat hudud, aholi soni va iqtisodiyot hajmi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Ittifoqning eng katta mamlakati Rossiya, eng

kichigi Armanistondan 574-marta kattaroqdir va shunga o'xshash, Rossiyaning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) Armanistondan 170 baravar katta. Umuman, Rossiyaning YaIMi qolgan to'rt a'zoning umumiy YaIMidan taxminan 6 baravar katta. To'rt a'zo davlat – Armaniston, Belarus, Qozog'iston va Qirg'izistonning umumiy aholisi qariyb 42 million, Rossiya aholisi esa 147 millionga yaqin. Shu jihatdan qaraganda, umumiy YaIMning 87 foizi, umumiy aholining 80 foizi Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelishi hamda YeOIIga a'zo davlatlarning iqtisodiy jihatdan baravar emasligi Rossiyaning dominantlik pozitsiyasini namoyon etadi. Qarorlarning consensus asosida qabul qilinishi tomonlarning fikrlarini istisno tariqasida qabul qilinishi a'zo tomonlarning manfaatlarini to'la ta'minlamaydi. YeOIIda bojxona tartib-tamoyillari Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqi bojxona kodeksi asosida tartibga solinadi. Biz quyida Yevroсиyo iqtisodiy ittifoq(Иттифоқ)idagi bojxona to'lovleri tizimini o'rgandik.



YeOIIda bojxona to'lovleri 5 ga bo'linadi. Ulardan eksport bojxona bojlari, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i a'zo davlatlar tomonidan mustaqil belgilanadi.

**Import bojxona boji.** YeOIIda tashkil etgan Bojxona Ittifoqida bojxona hududi yagona ekanligi to'lovlar yo'nalishida faqatgina import bojxona bojlari yagona hisob asosida yig'iladi va turli foizlarda bo'linadi. Ushbu tartib YeOIIda 2017-yil 1-yanvar boshlab qo'llanilib kelinmoqda. YeOIIda a'zo mamlakatlar o'rtasidagi kelishuvining 5-ilovasiga binoan a'zo davlatlar o'rtasida umumiy miqdor turlicha taqsimlanadi. Ulardan Armaniston Respublikasi – 1,220%, Belarus Respublikasi — 4,860%, Qozog'iston Respublikasi – 6,955%, Qirg'iziston Respublikasi – 1900%, Rossiya Federatsiyasi — 85,065% kabi ulushlarga ega hisoblanadi . Import bojxona bojlari yagona tarif asosida tartibga solinadi va uchinchi har qanday mamlakat uchun qo'llaniladi. Import bojxona bojlaridan ozod etish masalalari ham YeOIIda umumiy tartibda belgilanadi. YeOII a'zolari o'rtasida byudjet tushumlariga yagona hisobning ta'sirini import bojxona boji dinamikasi o'zgarishida ko'rishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2018-yil 18-oktyabr. (O‘RQ-502-son Qonuniga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) O‘zR 06.05.2000. 77-II-con Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ 419-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF 6003-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatçiliginis isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005 - sonli Farmoni

**TO'G'RI ICHAK VA ANAL KANAL XAVFLI O'SMA  
KASALLIKLARINING DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH  
SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA YUQORI MAYDONLI  
MAGNIT REZONANS TOMOGRAFIYANING IMKONIYATLARI**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
Oftalmologiya Otorinolaringologiya Onkologiya va  
Tibbiy radiologiya kafedrasi assistentlari:*

**Eshmuradov E.A.**

**Abrayqulov I.R.**

*Ilmiy rahbar: Tibbiyot fanlari nomzodi:*

**Raxmonova G.E.**


**Annotatsiya:** Kolorektal saraton kasallanish va o'lim darajasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Barcha yomon sifatli o'smalar orasida kolorektal saraton erkaklarda 10,5%, ayollarda 10,3% ni tashkil etadi. Eng katta ko'rsatkichlar iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qayd etilgan G'arbiy Evropa, Shimoliy Amerika va Rossiya. Hozirgi vaqtida dunyoda kolorektal saratoni tarqalishi bo'yicha 4-o'rinda erkaklarda o'pka saratoni, prostata saratoni va oshqozon, ayollarda esa 2-o'rinda, ko'krak saratonidan keying o'rinda turadi. To'g'ri ichak saratoni vizual lokalizatsiya o'smalariga tegishli bo'lishiga qaramay, neoplazmalarning 25% dan ortig'i kech bosqichda aniqlanadi, bu esa o'limning yuqori ko'rsatkichlarini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** MRT, To'g'ri ichak, anal kanal, havfli o'sma, TNM.

To'g'ri ichak raki diagnostikasi: To'g'ri ishlap chiqilgan diagnostika algoritimi kasallikni o'z vaqtida to'g'ri tashxislash va effektiv davolash uchun juda muhim bo'lip sanaladi. Klassik usullardan sanaladigan kolonoskopiya va irrigografiya afsuski jarayonni haqiqiy holati; o'smaning qanchalik darajada chuqr joylashganligi, regionar limfa tugunlari holatini va qo'shni azolarga mtastaz bergen bermaganligi haqida to'liq malumot bera olmaydi. Rentgenalogik tekshiruvlar faqatgina birlamchi o'smaning lokalizasiyasi va hosilani shakli haqida dastlabki malumotlarni beradi. Yuqorida aytganimizdek bizga qo'shimcha malumotlar ham juda muhim bo'lip sanaladi. Klinikda zamonaviy yuqori informativ usullardan UZI, MSKT va MRT bizga juda ham ko'p muhim kerakli malumotlarni beradi ayniqsa MRT ning o'rni juda beqiyos. Bu ustunlik uning ishslash texnikasi, qo'shimcha rejimlari va yumshoq to'qimalarni yuqori aniqlikda ko'rish qobilyati bilan izohlanadi.

To'g'ri ichakni MRT skaynerlash tehnikasi va bayonnomasi: Skaynerlash dast avval T2 tasvirda sagittal kesma olishdan boshlanadi(1-rasm). Bu kesma patalogik jarayonni ichak devorida qanday joylashganligi va cho'zilganligi haqida yuqori

malumot beradi. Patalogik o'smaning qanchalik chuqurlikda joylashganligini to'g'ri va ishonchli aniqlash uchun zararlangan ichak bo'shlig'ini to'g'ri burchak ostida kesma qalinligi 3mm etib belgilap olinadi.



1-rasm.T2 tasvirda sagittal kesma.

To'g'ri ichak devoir MRT Anatomiysi. Ichakning anatomik tuzilishi 5 qavatdan tashkil topgan: Shilliq, mushak-shilliq osti, shilliqosti, aylanasimon va ko'ndalang mushak qavatlaridan tashkil topgan. Ha,mma qavatlarni T2 rejimda yuqori farq bilan ajratish kamdan kam hollarda bo'lishi mumkin. Ko'pchilik hollarda shilliq va shilliq osti qavat o'zining mushak qavatiga qaraganda bir xil yuqori intensivlikdagi qavat bo'lip ko'rindi. Ichak devoir qalinligi odatda 6 mm dan oshmasligi kerak. T1 tasvirda odatda ichki qavatlar o'rtacha intensiv signal beradi. Kiyingi past intensivlikdagi qatlam shilliq qavatning shilliq va mushak plastinkasi hisoblanadi undan kiyin shu qatlamga soloishtirilganda yuqori intensiv signal beradigan shilliq osti qavat turadi. Ikkinci past intensivlik beradigan qatlam bu mushak qavati hisoblanadi va uni atrofini o'rap turadigan mezorektal kletchatka doim yuqori intensivlikdagi signal beradi.

To'g'ri ichakni birlamchi o'smalarini MRT semiotikasi. To'g'ri ichakni birlamchi o'smali T2 tasvirda odatda mushak qavatiga qaraganda o'rtacha intensivlikdagi signal beradi, ammo musinoz o'smalar o'zidagi mavjud suyuqlikni hisobiga yuqori intensivlikdagi signal berishi mumkin. (2-rasm).

2-rasm T2 tasvirda O'zgargan to'g'ri ichak segmenti. Strelkalar bilan to'g'ri ichak o'smasining musinoz komponenti ko'rsatilgan.



Bundan tashqari hosila sohasida to'g'ri ichak devorlari qavatlarining differinsirovkasi mahalliy qalinlashish hisobiga ko'proq yo'qolishi kuzatiladi. Bundan tashqari boshqa muhim belgilarga o'sma sohasida ichak devorining deformasiyasi, mavjud tomirlar hosila sohasida mavjudligi yoki aralash ko'rinishda bo'lishi kiradi. To'g'ri ichakning hosilalarini MRT tasvirlarini xulosa qilish vaqtida doim quyidagi hususiyatlarni baholash kerak: Invaziyani chuqurligini, mezorektal fassiya bilan o'sma orasidagi masofa, o'sma va anal sfinkterlar orasidagi masofa, mezorektal sohadagi limfatik tugunlarda o'zgarishlarning mavjudligi, perivaskulyar va perinevral infiltirasiyalar mavjudligi.

To'g'ri ichakning birlamchi o'smalarini baholashda MRT ning qiyinchiliklari.

Sagital proeksiyada T2 tasvirda to'g'ri ichakning o'smalarini haqiqiy chegaralarini aniqlash yalig'lanish infiltrasiyasi va peritumarozi shish hisobiga bir muncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari to'g'ri ichak rakini peritumoral fibroz hisobiga giperdiagnostika qilinishi mumkin. U o'sma atrofida past intensivlikdagi chiziqli signallar aniq chegaralar bila ko'rinishi mumkin. Linitis plastica- bu to'g'ri ichak rakining kamdam kam uchraydigan formalaridan hisoblanadi. Bunda yomon sifatli hujayralar yoki diferensiallashmagan adenokarsinoma hujayralari shilliq osti qavat bilan hususiy mushak qavatlariga infiltrasiyalanadi va qisman shilliq qavatga tarqaladi. Bunday formadagi o'smalar T1 tasvirda to'g'ri ichak devori va mezorektal fassiya o'rtasida burchak hosil qilip belgilanadi. T2 tasvirda to'g'ri ichak devori aralash o'sishi oqibatida(infiltrativ o'sma va hususiy mushak plastinkaning atrofidagi fibroz qavat hisobiga) halqasimon ko'rinishi mumkin.

To'g'ri ichak rakida mahalliy limfa tugunlarini holatini baholashga MRT ning imkoniyatlari. Ming afsuski MRT har doim ham o'sam jarayonlarida mezorektal sohalaridagi limfa tugunlarini holatini baholashda yuqori informatsiya bera olmaydi. Xar xil malumotlarga tayanip o'ratcha aytadigan bo'lsak mahalliy limfa tugunlarini holatini baholashda MRT ning sezgirligi tahminan 65% atrofida. Ko'pchilik holatlarda to'g'ri ichakning o'sma bilan zararlanishida uning yalig'lanishli o'zgarishlari hisobiga pararektal limfa tugunlari kattalaship ko'rinishi mumkin. Yomon sifatli limfa tugunlariga shubha tug'diradigan belgilarga: yumaloq shakilli, tugunning noto'g'ri va noaniq chegaralari, tugunda xar xil intinsivlikdagi signallarning mayjudligi, (G.Brown o'z ishida ko'rsatgan 1999-2003), trofik o'zgarishlar bilan harakterlanishi-nekroz kiradi.

To'g'ri ichak rakining darajalari: Bugungi kunda to'g'ri ichak rakini darajalashda TNM klasifikassiyasining 6-nashridan foydalilanildi.

#### **KLASSIFIKASIYA TNM (6-nashir 2002 yil.)**

##### **T- birlamchi o'sma.**

Tx — birlamchi o'smani baholashda malumotlar yetarli emas.

T0 — Birlamchi o'smaning belgilari yo'qligi.

Tis—(carcinoma in situ) Invaziv bo'limgan o'smaning shilliq qavat hususiy plastinkasida joylashganligi.

T1 — O'smaning shilliq osti qavatga infiltiratlanishi.

T2 —O'smaning hususiy mushak qvatiga tarqalishi.

T3—O'sma subseroz qavat va atrofdagi to'qimalarga (mahalliy rektal kletchatkaga) tarqaladi.

T4—O'sma shilliq qavat shegarasi yoki qo'shni organlarga tarqaladi.

##### **N—Mahalliy limfa tugunlari**

Nx—Mahalliy limfa tugunlarini holatini baholashda malumotlar yetarli emas.

N0—Mahalliy metastazlar yo'q.

N1— 1 yoki 3 ta limfa tugunlarining zararlanishi.

N2—4 ta yoki undan ko'p limfa tugunlarining zararlanishi.

##### **M—Uzoq metastazlar.**

Mx—Uzoq metastazlarni holatini baholashda malumotlar yetarli emas.

M0—Uzoq metastazlar yo'q.

M1—Uzoq metastazlar bor.

To'g'ri ichak rakini davolashdan kiyingi MRT diagnostikasi.

To'g'ri ichak rakining nur terapiyadan kiyingi kichik chanoqdagi o'zgarishlari, nurlatish davomiyligi va umumiy dozaning miqdoriga to'g'ri proporsionaldir.O'tkir va o'tkir osti bosqichlarda (ximya va nur terapiya o'tkazilgandan kiyingi 1 yilgacha) MRT yalig'lanish va hujayralar sitolizini aks ettiradi. Bunda ichki orgnlar devori qalinlaship ko'rinishi( to'g'ri ichak, siydik qopi, uretra,qin) va to'g'ri ichak shilliq va shilliq osti

qavatlarining T2 tasvirda yuqori signal berishi va vena ichi kontrasti qilinganda shilliq qavatning signal kuchayishi bilan harakterlanishi mumkin. Bu klinik nur rektit, sistit, uretrit va vaginitga mos keladi. Nur terapiyyaning kechki effektlariga kichik chanoqdagi fibroz o'zgarishlar kiradi. Bunda ichki organlar devoridagi qalinlashish saqlanip qolishi mumkin lekin T1 va T2 tasvirlar va kontrastli kuchaytirishda past signallar beriadi yoki kam darajada kontrast yig'adi. Bundan tashqari og'ir o'zgarishlar ichak devorini stirkturalari va oqmalar rivojlanishi(qin-to'g'ri ichak yoki siylik qopi-to'g'ri ichak) kuzatilishi mumkin.

To'g'ri ichak o'smalarining qaytalanishida MRT diagnostikasi. Nisbiy sirkulyar rezeksiyadan kiyin to'g'ri ichak rakini ressidivi 50% holatda kuzatiladi, hattoki total mezorektumektomiya va hamma kerakli talablarga amal qilinganda ham bu ko'rsatkich 10% dan ko'piga pastga tushmaydi. O'sma residivi odatda T2 tasvirda mushak qavatini intensivligiga solishtirilganda o'rtacha signal beradi ammo fibrozlanish sohalari birinchi nurlantirishdan kiyin 2 yil davomida bir xil signal berishi mumkin. Dinamikda ko'proq vena ichiga kontrastli kuchaytirilgan rejimda olingan malumotlar o'sma residivini aniqlashda spesifik bo'lip hisoblanadi.

Xulosa. Asosan to'g'ri ichak rakini davolash taktikasi operatsiyadan oldingi o'smaning darajasiga bog'liq. Terapeutik qarorni qabul qilish o'smaning mahalliy to'qimalarga va mezorektal fassiyaga tarqalgan tarqalmaganligiga bog'liq. Bu ishda MRT ning spesifikligini aniqlashda mezorektal fassiyani holatini aniqlshda ishlatiladigan boshqa usullar bilan solishritip ko'rshimiz mumkin. Asosan invaziyani chuqurligini baholashda KT ning imkoniyatlari va malumotlari cheklangan. MRT da effektivlikni baholashda bir qancha faktorlar ishlatilayotgan aparatning magnit maydoni(kamida 1,5-3 tesla), kesmalr tekisligi, impulsli izchilliklar, metodika(kontrastli kuchaytirgichlar) va tasvirning sifati muhim ro'l o'ynaydi. To'g'ri ichak rakini MRT da darajalashda TNM klassifikasiyasidan foydalaniladi. To'g'ri ichak o'smalarini aniqlashda MRT bilan ichki azolarni kontrastlash yoki endorektal datchiklarda foydalanish informativroq bo'lip sanaladi. Bu usul qolganlariga nisbatan isriqbolli bo'lip hisoblanadi. Limfa tugunlarini mahalliy holatini baholash, uning o'lchamlarini aniqlashda va metastatik zararlanganligini aniqlashda absalut kriteriyalar mavjud emas. Limfa tugunlarini shakli va tuzilishini aniqlash kasallikni prognoz qilishda asosoiy ma'no kasb etadi. Temir oksidli kontrast vositalaridan foydalanish ko'plap izlanishlarni va yangiliklarni taqozo etadi. Bu tekshiruv usuli mayda limfatik tugunlarda metastatik zararlanishlarni aniqlash hamda giperplaziya yoki metastatik zararlanish hisobiga kattalashgan limfatik tugunlarini differensial diagnostikasi haqida ko'plap malumotlar berishi mumkin. Mahalliy limfa tugunlarini zararlanishini baholashda MRT va UZI afzalligi haligacha bahs munozaralicha qolmoqda. Bu muammoni hal qilshda bemorlarda kichik chanoqning boshqa a'zolari o'smalariga solishtirilganda misol uchu bachardon tanasi va bo'yni rakiga MRT ning diagnostik

qiymati ustun turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Абелевич, А.И. Новые технологии в диагностике и хирургическом лечении рака прямой кишки: дисс. ... канд. мед. наук : 14.00.27 / Абелевич Александр Исакович.
2. Алиев, И.И. Современные принципы и подходы к лечению больных местнораспространенным раком прямой кишки / И.И. Алиев, А.В. Гуляев, И.В. Правосудов, А.М. Каракун // Вопросы онкологии. - 2012.
3. Бегунов, В.В. Выбор метода лечения больных раком прямой кишки стадии T3N0M0 и T2-3N1-2M0 : дис. ... канд. мед. наук : 14.00.14 / Бегунов
4. Гордеев, С.С Рак прямой кишки: история и эволюция лечения / С.С. Гордеев, Ю.А. Барсуков, Р.И. Тамразов // Онкологическая колопроктология.
5. Ким, Д.Ф. Комплексное лечение больных плоскоклеточным раком анального канала / Д.Ф. Ким [и др.] // Онкологическая колопроктология. - 2012.
6. Мельников, Р.А. Полипы и рак толстой кишки / Р.А. Мельников, В.А. Ковалев, И.В. Правосудов // Хирургия. - 1989.
7. Рязанов, В.В. Совмещенная позитронно-эмиссионная и компьютерная томография в определении морфофункциональных характеристик опухолей пищеварительного тракта: дисс. ... д-ра. мед. наук: 14.00.19 / Рязанов Владимир Викторович. - СПб.,
8. Семиков, К.В. Комплексное лечение местно-распространенного рака прямой кишки / К.В. Семиков, А.В. Важенин, Е.А. Надвикова [и др.] // Сиб. онкол. журн. – 2008.
9. Тимофеев, Ю.М. Выбор метода лечения при плоскоклеточном раке анального канала / Ю.М. Тимофеев [и др.] // Вестн. Моск. онкол. о-ва. - 2004.
10. Яицкий, Н.А. Современные проблемы лечения рака прямой кишки. Часть 1 / Н.А. Яицкий, И.А. Нечай // Вестн. хир. им. И.И. Грекова. - 2002.
11. Allen, S.D. Rectal carcinoma: MRI with histologic correlation before and after chemoradiation therapy / S.D. Allen [et al.] // Am. J. Roentgenol. - 2007.
12. Beck, D. The ASCRS Textbook of Colon and Rectal Surgery / D. Beck [et al.]. - 2nd. ed.
13. Birbeck, K.F. Rates of circumferential resection margin involvement vary between surgeons and predict outcomes in rectal cancer surgery / K.F. Birbeck, C.P. Macklin, N.J. Tiffin [et al.] // Ann. Surg. - 2002.
14. Cai, G. Diffusion-weighted magnetic resonance imaging for predicting the response of rectal cancer to neoadjuvant concurrent chemoradiation / G. Cai, Y. Xu, J. Zhu [et al.] // World J. Gastroenterol. - 2013.

15. Chandrasinghe, P.C. The total number of lymph nodes harvested is associated with better survival in stages II and III colorectal cancer / P.C. Chandrasinghe, D.S. Ediriweera, J. Hewavisenthi [et al.] / Indian. J. Gastroenterol. - 2013.
16. Dassanayake, B.K. Local recurrence of rectal cancer in patients not receiving neoadjuvant therapy - the importance of resection margins / B.K. Dassanayake, S. Samita, R.Y. Deen [et al.] // Ceylon. Med. J. - 2011.
17. Engin, G. Can diffusion-weighted MRI determine complete responders after neoadjuvant chemoradiation for locally advanced rectal cancer? / G. Engin, R. Sharifov, Z. Gural [et al.] // Diagn. Interv. Radiol. - 2012.
18. Goh, V. Magnetic resonance imaging assessment of squamous cell carcinoma of the anal canal before and after chemoradiation: can MRI predict for eventual clinical outcome? / V. Goh, F.K. Gollub, J. Liaw [et al.] // Int. J. Radiat. Oncol. Biol. Phys. - 2010.

BOSH MIYA GLIOBLASTOMALARINI ANIQLASHDA  
MRT NING AHAMIYATI

*Abrayqulov I.R<sup>1</sup>, Eshmuradov E.A<sup>2</sup>.*



*<sup>1</sup>Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali*


**Annotasiya:** Glioblastoma hozirgi kunda markaziy nerv sistemasining eng keng tarqalgan glial astrotsit hujayralaridan o'sadigan havfli o'sma kasalliklaridan hisoblanadi. Barcha glial o'smalarning yarimini va bosh miya birlamchi o'smalarining uchrashi bo'yicha 16-20% ni tashkil qiladi. Har 100000 bemordan 3-4 ta holatda uchraydi. O'sma asosan 40-60 yoshdagи bemorlarda ko'proq uchraydi, lekin bolalarda ham aniqlanadi. Kasallikni kechishi esa ko'pincha ijobiy emas, sababi neyronlardan farqli ravishda astrosit hujayralari tez o'sish hususiyatiga ega va o'sma bilan zararlangandan keyin o'rtacha umr ko'rish 15-17 oyni tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** MRT, MSKT, bosh, o'sma, konrtast, rak,

**Usullar:** tadqiqotda bemorlarga gistologik xulosalarda glioma yuqori havflilik darajasi tashxisi qo'yilgan har ikki jinsdagi 40-70 yoshdagи 16 ta bemor 2021-yil dekabr oyidan 2022-yil dekabr oyigacha Surxandaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi nurli diagnostika bo'limidagi MRT philips 1.5T apparatida tekshiruvlardan o'tgan hulosalari jamlangan. Gistalogik va MRT tahlillari o'rtasida taqqoslash amalga oshirildi.

**Natijalar:** Jami tekshirilgan bemorlarning MRT hulosalarida rejimlar bo'yicha nisbat quyidagicha edi. O'smaning solid komponenti T1 tasvirda 14 ta bemorda oq moda chegarasida komponent gipo-izointensiv signal, markaziy qismi geterogen signal(nekroz va o'smaning ichki qonashi) 2 tasida izointensiv signal, T1+C(magnilek)15 ta bemorda nekroz atrofini o'ragan uzluksiz halqasimon tipdagi kontrast yig'ilishi, GE/SWI rejimida bemorlarda o'smaning ichki komponentida noto'liq noregulyar past intensivlikdagi signallar(qonash hisobiga), DWI rejimida bemorlarda diffuziya cheklanishi markaziy qisimda yuqori signal, MR-spektroskopiyada xolin-oshgan, laktat-oshgan, lipidlar-oshgan, NAA-pasaygan, mio inozitol-pasaygan, T2 tasvirda bemorlarda giperintensiv signal, FLAIR da bemorlarda giperintensiv signal va T2 hamda Flair rejimida perifokal shish zonasi aniqlandi.





**Xulosa:** Barcha glial o'smalar 91% holatlarda MRT T1 tasvirda gipointensiv, T2 tasvirda giperintensiv va 100% holatda FLAIR rejimida giperintensiv signal beradi.O'smaning T1+contrast (magnilek) periferik kontrast yutishi, markazida nekroz zonasi,qonash belgilari va kuchli ifodalangan periferik shish zonasi gliomaning havflilik IV-darajasi ekanligidan darak beradi.Glioma havfli darajasini MRT da aniqlash va gistoligik tahlillar orasidagi bog'liklik 95% ni tashkil etadi. MRT glial o'smalarni hamda, ularning yuqori haflilik darajasini aniqlashda yetakchi va istiqbolli usul hisoblanadi. MRT nafaqat glial o'smalarni aniqlash balki, ularni boshqa intrakranial o'smalar:metastazlar,anaplastik astrositoma,oligodendroglioma, bosh miya absesslari, tok soplozmoz va markaziy nerv sistemasini limfomalaridan farqlashga yordam beradi.

**O'PKANING SIL KASALLIGI UCHUN KOMPYUTER  
TOMOGRAFIYANING AHAMIYATI**

*Eshmuradov E.A. , Abrayqulov I.R.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Oftalmologiya  
Otorinoloringologiya Onkologiya va Tibbiy radiologiya kafedrasi assistentlari:  
Ilmiy rahbar: Tibbiy fanlari nomzodi: **Raxmonova G.E.***

**Annotatsiya:** Tuberkulyoz - o'pka va boshqa ichki organlarga ta'sir qiluvchi yuqumli kasallik(asosan): ko'ks oralig'i, oshqozon, mushaklar. Sil kasalligi rivojlanishining asosiy sababi immunitetning pastligi bo'lib, unda mikobakterial infektsiya (Kox tayoqchasi) keng infiltrativ-yallig'lanish jarayonini keltirib chiqarishi mumkin.

Sil kasalligi havo tomchilari orqali yuqadi va potentsial o'limga olib keladigan kasallik hisoblanadi. 20-asrga qadar kasallik davolab bo'lmas edi va uni (rentgen nurlari ixtiro qilinishidan oldin) faqat kech bosqichda tashqi belgilar - yo'talish, terining sarg'ayishi, suyaklar va limfa tugunlarining deformatsiyasi bilan aniqlash mumkin edi. Bugungi kunda KT yordamida o'pka to'qimalaridagi har qanday o'zgarishlar va asoratlarni (shu jumladan fibrokavernozi jarayonni) aniqlash bilan sil kasalligini dastlabki bosqichlarda tashxislash mumkin.

**Kalit so'zlar:** MSKT, rentgen, o'pka, tuberkulyoz, sil kasalligi, o'choqlar.

Sil kasalligi: kasallikning sabablari va etiologiyasi.

Tuberkulyoz - odam va hayvonlarning *Mycobacterium tuberculosis* kompleks guruhiga kiruvchi turli mikobakteriyalar (Kox tayoqchasi) keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik. Ushbu bakteriyalar bilan infektsiya, ayniqsa, megapolislar aholisi orasida juda keng tarqagan: Kox tayoqchasi ko'cha va uy changida 1 yilgacha, issiqda, yuqori namlikda va yorug'liksiz 5 yildan ortiq yashashi mumkin. Nazariy jihatdan, deyarli har bir odam mikobakteriyalarning tashuvchisi bo'lishi mumkin, ammo odatda inson immuniteti infektsiyani bostirishga qodir. Kasallik kam immunitet holati bilan rivojlanadi. Odamlar tuberkulyoz bakteriyalarining asosiy tashuvchisi bo'lib, ichki organlar va ayniqsa o'pka qulay muhit hisoblanadi.

Bugungi kunda kasallanganlarning atiga 5-10 foizi hayot davomida sil kasalligiga chalinadi. Agar bemorning anamnezida quyidagi kasalliklar bo'lsa, xavf ortadi:

- Qandli diabet;
- Oshqozon yarasi;
- OIV infektsiyasi.

Sil kasalligi ko'pincha chekuvchi va spirtli ichimliklarni iste'mol qiladigan odamlarga, bolalar va o'smirlarga ta'sir qiladi. Kasallik og'ir ijtimoiy sharoitlarda, ortiqcha ish, stress va ishsizlik


#### Sil kasalligining belgilari

Sil kasalligining eng keng tarqalgan belgilari, agar kasallik asemptomatik bo'lmasa, quydagilarni o'z ichiga oladi:

- yo'tal;
- Harorat (37 darajadan yuqori);
- Ozish;
- Isitma, tungi terlash.

Sil kasalligini tashxislash rentgen tekshiruvi, siyanobakteriya smearlari va terini tekshirish natijalariga ko'ra mumkin. O'pka to'qimalarining tuberkulyoz lezyonlarini aniq tashxislash (lokalizatsiya, infiltratlarning zichligi) faqat kompyuter tomografiyası bilan mumkin.

#### O'pka tuberkulyozining turlari: KT rasmi



O'pkaning kompyuter tomografiyasi mikobakteriyalar sinfidan sil infektsiyasining o'ziga xos qo'zg'atuvchisini ko'rsatmaydi, ammo o'pkada an'anaviy rentgen nurlari yoki fluorografiyada ko'rinishlarni ko'rsatadi. Muayyan KT tasviriga asoslanib, rentgenologlar silning quyidagi turlarini aniqlaydilar:

- **Ko'krak qafasi ichi limfa tugunlarining sil kasalligi (o'pka ildizi infiltratsiyasi sindromi va o'pka ildizining politsiklik o'zgargan sindromi)** ko'krak qafasi va ko'ks oralig'i limfa tugunlarining bakterial infektsiyasi bo'lib, o'pkada hech qanday zarar yo'q.
- **Miliar tuberkulyoz (miliar disseminatsiya sindromi)** o'pkada nisbatan bir tekisda joylashgan ko'plab tariqsimon tuberkulyozlarning mavjudligi bilan tavsifланади.
- **Tarqalgan o'pka tuberkulyozi** - ikkala o'pkada silning ko'p o'choqlari turli o'lchamlarga ega va diffuz joylashadi.
- **O'choqli tuberkulyoz** - diametri 1 sm gacha bo'lgan bir yoki bir nechta o'choqlarning mavjudligi bilan tavsifланади. Agar bir nechta o'choqlar bo'lsa, ular bir joyda joylashadi.
- **Infiltrativ o'pka tuberkulyozi** - bronxo-pnevmonik yallig'lanishning mavjudligi, diametri 1 sm dan ortiq o'pka to'qimalarining infiltratsiya maydonining shakllanishi bilan tavsifланади.
- **Kavernozli o'pka tuberkulyozi** aktiv yuqumli jarayon natijasida o'pka to'qimalarining parchalanishi, yumaloq yoki oval bo'shliqning shakllanishi bilan tavsifланади.
- **Fibröz-kavernoz tuberkulyoz** - o'pkada bo'shliqlar bilan bir qatorda fibroz belgilari mavjud, Bu organizmning yallig'lanishga aggressiv javobidir va o'pka to'qimasini deformatsiya qiladi; O'pkada sil chandiqlari hosil bo'ladi.
- Kasallik o'tkir yoki surunkali shaklda paydo bo'lishi mumkin.

Birlamchi sil kompleksi (kasallikning dastlabki bosqichi) o'pkada yagona yoki bir guruh kengaygan limfa tugunlari mavjudligi bilan tavsifланади. Kompyuter tomografiyasida o'pka bo'laklarida bir yoki ko'pincha ikkala tomonda o'pka to'qimasining zinchashishlari ko'rindi.



### KT NING BOSHQA RENTGENOLOGIK TEKSHIRISH USULLARIDAN AFZALLIKLARI:

- Aksial tekislikning tasvirini ko'rsatadi, bemorning o'pkasining batafsil haqiqiy 3D modelini qayta yaratishga imkon beradi, bu fluorografi va rentgen nurlari bilan mavjud emas;
- Infiltratlarning zichligini, hajmini, shaklini ishonchli baholash imkonini beradi; sil o'pkasining shikastlanish darajasini aniqlash;
- Yumshoq to'qimalarni, torakal arteriyalarni, limfa tugunlarini baholash uchun intravenöz kontrastning imkoniyatlarini kengaytiradi;
- Densitometrik tasvirni qayta ishlash imkoniyati mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Рязанов, В.В. Совмещенная позитронно-эмиссионная и компьютерная томография в определении морфофункциональных характеристик опухолей пищеварительного тракта: дисс. ... д-ра. мед. наук: 14.00.19 / Рязанов Владимир Викторович. - СПб.,
2. Семиков, К.В. Комплексное лечение местно-распространенного рака прямой кишки / К.В. Семиков, А.В. Важенин, Е.А. Надвикова [и др.] // Сиб. онкол. журн. – 2008.

3. Тимофеев, Ю.М. Выбор метода лечения при плоскоклеточном раке анального канала / Ю.М. Тимофеев [и др.] // Вестн. Моск. онкол. о-ва. - 2004.
4. Яицкий, Н.А. Современные проблемы лечения рака прямой кишки. Часть 1 / Н.А. Яицкий, И.А. Нечай // Вестн. хир. им. И.И. Грекова. - 2002.
5. Allen, S.D. Rectal carcinoma: MRI with histologic correlation before and after chemoradiation therapy / S.D. Allen [et al.] // Am. J. Roentgenol. - 2007.
6. Beck, D. The ASCRS Textbook of Colon and Rectal Surgery / D. Beck [et al.]. - 2nd. ed.
7. Birbeck, K.F. Rates of circumferential resection margin involvement vary between surgeons and predict outcomes in rectal cancer surgery / K.F. Birbeck, C.P. Macklin, N.J. Tiffin [et al.] // Ann. Surg. - 2002.
8. Cai, G. Diffusion-weighted magnetic resonance imaging for predicting the response of rectal cancer to neoadjuvant concurrent chemoradiation / G. Cai, Y. Xu, J. Zhu [et al.] // World J. Gastroenterol. - 2013.
9. Chandrasinghe, P.C. The total number of lymph nodes harvested is associated with better survival in stages II and III colorectal cancer / P.C. Chandrasinghe, D.S. Ediriweera, J. Hewavisenthi [et al.] / Indian. J. Gastroenterol. - 2013.
10. Dassanayake, B.K. Local recurrence of rectal cancer in patients not receiving neoadjuvant therapy - the importance of resection margins / B.K. Dassanayake, S. Samita, R.Y. Deen [et al.] // Ceylon. Med. J. - 2011.
11. Engin, G. Can diffusion-weighted MRI determine complete responders after neoadjuvant chemoradiation for locally advanced rectal cancer? / G. Engin, R. Sharifov, Z. Gural [et al.] // Diagn. Interv. Radiol. - 2012.
12. Goh, V. Magnetic resonance imaging assessment of squamous cell carcinoma of the anal canal before and after chemoradiation: can MRI predict for eventual clinical outcome? / V. Goh, F.K. Gollub, J. Liaw [et al.] // Int. J. Radiat. Oncol. Biol. Phys. - 2010.

## ХОЛЕЦИСТИТ, ВИДЫ, ОСЛОЖНЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЕ

*Махсудова Гулнора Сайджановна*

Технический колледж общественного здравоохранения  
имени Асаки Абу Али ибн Сины

**Аннотация:** Холецистит – заболевание, связанное с воспалением желчного пузыря, обычно вызываемое желчными камнями, инфекциями или другими причинами. Существуют разные виды холецистита, каждый из которых имеет свои клинические показания и методы лечения. В данной статье подробно рассмотрены основные виды холецистита, их осложнения и методы лечения.

**Ключевые слова:** холецистит, лечение, диагностика, камни, желчь, хронический холецистит, инфекции, желчный пузырь.

Наиболее распространенными видами холецистита являются калькулезный и некалькулезный холецистит. Калькулезный холецистит развивается при наличии желчных камней. Камни скапливаются в желчном пузыре и воспаляют его стенку. При этом больной ощущает сильную боль, скованность в животе, потерю аппетита и иногда повышение температуры. Необъяснимый холецистит связан с воспалением мочевого пузыря в тех случаях, когда желчных камней нет, но вследствие инфекции или других причин. При этом типе у пациента часто наблюдаются такие симптомы, как боль в животе, покраснение кожи и лихорадка. Другой тип холецистита – хронический холецистит. Такое состояние обычно возникает в результате длительных воспалительных процессов. Больные хроническим холециститом часто жалуются на боли в животе, проблемы с пищеварением, потерю аппетита. Хронический холецистит также может со временем привести к осложнениям. Осложнения холецистита могут быть очень серьезными и требуют незамедлительной медицинской помощи. Наиболее частым осложнением является перфорация.[1]

В результате разрыва воспаленной стенки желчного пузыря желчь может попасть во внутренние органы. Это состояние опасно для жизни и требует немедленного хирургического вмешательства. Кроме того, при тяжелых формах холецистита может появиться абсцесс внутри или вокруг желчного пузыря. Развитие абсцесса может ухудшить общее состояние больного, повысить температуру и боли. Для лечения абсцесса часто необходимо хирургическое вмешательство. Еще одним серьезным осложнением холецистита является сепсис. Такое состояние возникает в результате распространения инфекции по сосудам и считается опасным для жизни. Симптомы сепсиса включают высокую температуру, учащенное сердцебиение, низкое кровяное давление и общую

слабость. Это состояние требует немедленной медицинской помощи.

Методы лечения холецистита различаются в зависимости от типа и тяжести заболевания. Наиболее часто используемые методы лечения включают медикаментозное лечение, диету и хирургическое вмешательство. Лекарственные средства играют важную роль в лечении холецистита. Для уменьшения воспаления и устранения инфекции рекомендуются антибактериальные и противовоспалительные препараты. Аналгетики также используются для уменьшения боли пациента. Наряду с лекарствами необходимо изменить рацион больных. Рекомендуется избегать жирной и трудноперевариваемой пищи, уделять внимание овощам и фруктам.[2]

Если холецистит значителен или развились осложнения, может потребоваться хирургическое вмешательство. Во время этой операции желчный пузырь может быть удален. Хирургическое вмешательство обычно проводится лапароскопически, что сокращает сроки восстановления пациента и снижает риск осложнений.[3]

Для профилактики холецистита важно вести здоровый образ жизни, правильно питаться и регулярно заниматься физической активностью. Здоровое питание, отказ от жирной пищи и употребление большего количества овощей, фруктов и хороших источников белка могут снизить риск развития холецистита. Также для поддержания здоровья внутренних органов необходимо избегать лишнего веса и регулярно заниматься спортом.[4]

Регулярные медицинские осмотры также способствуют раннему выявлению холецистита. Если больной чувствует боль в животе, потерю аппетита или другой дискомфорт, ему следует немедленно обратиться к врачу. Холецистит, обнаруженный на ранней стадии, часто успешно лечится, и осложнения можно предотвратить.[5]

Клинические показатели холецистита различаются в зависимости от вида заболевания. Больные калькулезным холециститом часто ощущают сильные боли, преимущественно в середине живота или в правой верхней части. Эта боль часто бывает острой и поражает непосредственно желчный пузырь. Пациенты часто также испытывают такие симптомы, как лихорадка, озноб и потливость. Однако при неосложненном холецистите пациенты могут испытывать более неопределенные симптомы, такие как боль в животе и расстройство желудка. При хроническом холецистите больные жалуются на длительные, но слабые боли и дискомфорт в пищеварении. При хронической форме больные часто страдают от снижения аппетита, частых болей в животе, неожиданной потери веса. Эти состояния зачастую ухудшают общее состояние больного и вынуждают его находиться под постоянным медицинским наблюдением. Для определения холецистита применяют ряд диагностических методов. Проанализировав

